

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOT
UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin ”

Fakultet dekani

f.f.d. B.Abdushukurov

“---” -----2018 y

5111200-“Ozbek tili va adabiyoti” bakalavr ta'lim yo`nalishi IV kurs

403-guruh talabasi Saydullayeva Muazzamxon Bahromjon qizining

„Yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganishda savol va topshiriqlarning o‘rni”

mavzusida yozilgan

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

Ilmiy rahbar: _____ D.Qoraboyev

**“O`zbek adabiyotini o`qitish
metodikasi” kafedrası o`qituvchisi**

Taqrizchilar:

_____ R.Niyozmetova

**“O`zbek adabiyotini o`qitish
metodikasi” kafedrası professori.**

_____ N. Xojamberdiyeva
34-umumta'lim maktabi o`qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“O`zbek adabiyotini o`qitish
metodikasi” kafedrası mudiri
f.f.d., _____ Z.Mirzayeva
2018yil “ _____”- _____

MUNDARIJA

BMI ning umumiy tavsifi.....	3
1-bob. Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	8
1.1. Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini o‘rganish mazmunini belgilash.....	8
1.2. Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini o‘rganish ustida olib boriladigan ishlar.....	19
2-bob. Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini o‘rganishda savol va topshiriqlardan foydalanish.....	34
2.1. Yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganishda savol va topshiriqlardan foydalanish.....	34
2.2. Adib hayoti va ijodini o‘rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari.....	40
2.3. Adib hayoti va ijodini o‘rganishda sayohat darslaridan foydalanish....	48
III bob. BMI ning amaliyotga tatbiqi	56
3.1. Tajriba sinov ishlari va ularning natijalariga oid tahlillar.....	56
3.2. Ochiq dars ishlanmasi.....	63
Xulosa.....	73
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	76

BMI ning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

“Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.¹

Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda.

Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohqandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani – ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi. Sizlarga yaxshi ma'lum, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohot va o'zgarishlar, keng ko'lamli dasturlar yagona va ulug' bir maqsadga qaratilgan. U ham bo'lsa, xalqimiz hayotini yanada obod va farovon qilish, farzandlarimizni har tomonlama yetuk va burkamol etib tarbiyalashdan iborat.

O'zbek adiblari xalqimizning nodir ma'naviy boyliklarini yaratib, ularni ko'paytirib kelgan va bugungi kunda yana ham ko'paytirayotgan shaxslardir. Har bir tarixiy davr ruhi, xalqimizning turmush tarzi, shu davrga xos ijtimoiy munosabatlar ko'proq adib orqali kitobxonlar qalbiga yetib boradi, u yerda puxta o'rnashib, muhrlanib qoladi, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib turadi. Ravshanki, biografik ma'lumotlar o'z mazmuni bilan yoshlarni milliy ma'naviyatimizni anglash, his etish ruhida tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi. Respublikamiz

¹ Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Jismoniy va ma'naviy barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV quriltoyida so'zlangan nutqi. 2017 yil 30 iyun.

birinchi prezidenti bejizga: “**...adabiyot masalasi bu ma’naviyat masalasidir**”²,- degan fikrni aytmagan.

Ayrim hollarda yaqin o‘tmishga aylangan davrlar ruhini, xalqimizning shu davrlar mobaynidagi orzu-o‘ylarini, milliy ma’naviyatini, urf-odatlarini, adibning egallagan pozitsiyasini anglamay, bilmay turib, badiiy asarlar mazmunini to‘g‘ri va to‘liq tushunib olish qiyin. O‘quvchining qalbiga yo‘l topa olmagan adabiy ma’lumot asarni o‘qishga, adibni bilish va tushunishga havas, qiziqish uyg‘ota olmaydi.

Metodik adabiyotlarda adib hayotidagi muhim voqealar (ko‘pincha bir-ikki voqea) aksariyat hollarda uning shaxsi qanday kamol topayotganini yoshlarga ibrat qilib ko‘rsatish maqsadini ko‘zda tutadi deb ta’kidlanadi¹. Bundan bilish mumkinki, tarjimai holdagi bu ma’lumotlar (hikoyalar) tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bunday voqealar yozuvchi ma’naviyatining shakllanish yo‘lini, bosqichlarini, undagi ma’naviyat qay tarzda tarkib topganini ko‘rsatish bilan birga o‘quvchilarni bundan tegishli xulosalar chiqarishga da’vat etishi bilan qimmatlidir.

Biografik ma’lumotlar, ayrim metodist-olimlarning ta’kidlashlariga ko‘ra, adibning shaxsi, ichki dunyosi va ruhiy olami, ma’naviy e’tiqodi va izlanishlarini qamrab olishi kerak². Bizningcha, ma’naviy e’tiqod va izlanishlar haqidagi gaplarni san’atkorning yoshlik yillari va o‘sib ulg‘ayishi bitiladigan qismda emas, uning ijod yo‘li yoritiladigan joyda berilgani ma’qul.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining "Adabiyot", "O‘zbek adabiyoti" darsliklari bilan tanishish shuni ko‘rsatdiki, adibning bolaligi, o‘sib ulg‘ayish davri juda qisqa yoritiladi va bundan uning ichki olamini, ruhiyatini bilib olish qiyin bo‘ladi.

Adib hayoti va ijodini o‘rganishda matbuot materiallaridan foydalanishning o‘rni kattadir. “Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida adibning o‘z fikrlaridan

² Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т.: “О‘збекистон”, 2009. -23 б.

¹ Zunnunov A. O‘zbek maktablarida adabiyot o‘qitish metodikasi tarixidan ocherklar. T.: O‘qituvchi, 1980. - 191 b. Zunnunov A. O‘zbek tili va adabiyoti darsliklari mezon. - T.: O‘zPFITI, 1994. - 15 b. Usmonov R. K. Yuqori sinflarda yozuvchi biografiasini o‘rganish. T.: O‘qituvchi, 1969. -68 b.

² Usmonov R. K. O‘zbek maktablarining yuqori sinflarida yozuvchi tarjimai holini o‘rganish: Ped. fan.nomz.dis.-T.,1969.-246 b. Yo‘ldoshev Q ., Madayev O., Abdurazzoqov. A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T.: O‘qituvchi, 1994. -92 b..

foydalanish ham yaxshi samara beradi. Masalan, Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodini o'rganishda bevosita uning o'z asari – «Qutadg'u bilig»ga murojat qilish o'rinli bo'ladi. Buning asosiy sabablaridan biri adib haqida boshqa ilmiy, tarixiy manbalarda tegishli axborotlarning saqlanib qolinmagani yoki hozircha topilmay turishidir”¹.

Yozuvchining buyukligini, adabiyot sohasidagi xizmatlari, jamiyatda tutgan mavqei, milliy ma'naviyatga qo'shgan hissasi, chinakam so'z ustasi ekanligini o'quvchilarga yetkazish zamirida bir tomondan, ma'rifiy maqsadlar yotsa, ikkinchi tomondan, o'rganiladigan asarga ijobiy munosabatni shakllantirish yotadi. ”So'z ustasining ijtimoiy mavqei, badiiy mahorati haqida chiqariladigan xulosa uchun uning o'zi to'g'risida aytganlari bilan bir qatorda boshqa atoqli kishilarning fikrlari muhim ro'l o'ynaydi. Bu kabi vositalar san'atkorning, adibning boshqalarga o'xshamaydigan qiyofasi va uslubi haqida o'quvchida yaqqol tasavvur uyg'otish uchun xizmat qilishi kerak. Zero, A.Oripovning O'zbekistonni sevishi H.Olimjonning sevishiga o'xshamaydi; Usmon Nosirning yurt tabiatiga maftunligi Cho'lpon lirikasidagi tabiat tasvirlaridan tamoman farq qiladi..”² . Har bir ijodkorning olam go'zalliklarini ko'rishi, his qilishi, tasvirlashi o'ziga xos.

Adib hayoti va ijodini o'rganishda tarjimai holni tashkil etuvchi qismlar ma'rifiy maqsadlarga erishish nuqtai nazaridan o'rganib chiqilishi zarur.

“Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adib hayoti va ijodini o'rganish metodikasi” mavzusining dolzarbligi ana shular bilan belgilanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi:

Shoir va yozuvchining hayoti va ijodini o'rgatish masalasi mustaqillikgacha bo'lgan davrda ham, istiqloq davri adabiyot o'qitish metodikasi sohasida ham izchil tadqiq qilingan.

Adabiyot o'qitish metodikasida tarjimai hollarni o'rganish xususida A.Zunnunov, R.Usmonov, Q.Yo'ldoshev, B.To'xlijev, M.Mirqosimova,

¹ To'xlijev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006, 117-bet.

² .Niyoymetova.R. XX asr o'zbek adabiyotini o'qitish mazmunini belgilash masalalari. Toshkent, 2001, 45-bet.

Q.Husanboeva, R.Niyozmetova, V.Qodirov boshqa metodist-olimlar soʻz yuritganlar, biografik maʼlumotlar mazmuni qanday boʻlishi kerakligi haqida baʼzan yoʻl-yoʻlakay, baʼzan maxsus toʻxtalib oʻtganlar. Oybek hayoti va ijodi boʻyicha H.Yoqubov, B.Nazarov, N. Karimov, U.Normatov, B.Karimov va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlari, risola va maqolalari bilan yozuvchi va shoirlar hayoti va ijodini kengroq yoritishga harakat qilganlar. Lekin uni metodik jihatlari, hozirgi kunda talab qilinayotgan axborot texnologiyalari, innovatsion texnologiyalari vositasida oʻrganish masalalari ishlab chiqilishi, oʻquvchilarga oʻrgatishda samarali usul, savol-topshiriqlar vositalarni tavsiya etilishi dolzarb boʻlgan muammolardan biridir.

BMI ning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. BMI mavzusi Alisher Navoiy nomidagi ToshDOʻTAU Oʻzbek tili va adabiyoti fakulteti "Oʻzbek adabiyotini oʻqitish metodikasi" kafedrasining 2016-2018 – yillarga rejalashtirilgan BMI mavzular bankida aks etgan.

Tadqiqotning maqsadi: Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini oʻrganish mazmuni, metodi, vosita va usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal etiladi:

- yozuvchi tarjimai holining mazmuni maʼrifiy nuqtai nazardan qanday qismlardan iborat boʻlishi kerakligi, hajmi va chegaralarini belgilash;

-adib hayoti va ijodini oʻrganishda sayohat darslaridan foydalanish;

- adib hayoti va ijodini oʻrganishda matbuot materiallaridan foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar tayyorlash;

- adib hayoti va ijodini oʻrganish yuzasidan savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

- milliy pedagogika fanining zamonaviy talablari asosida adabiy taʼlimdagi oʻzgarishlarni kuzatish, tahlil qilish;

- turli pedagogik texnologiyalar, zamonaviy usullardan foydalagan holda dars ishlanmalari tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adib hayoti va ijodini o'rganish bilan bog'liq o'tkaziladigan tahlillardan tashqari adib mahorati, so'z ishlatish san'ati sohasida olib boriladigan ishlar jarayoni.

Tadqiqot predmetini adabiy ta'lim jarayonida tadqiqot talqini va tahlili uchun DTSlari, dastur va darsliklar, o'quv qo'llanmalar, yangi pedagogik texnologiyalarning amaliyotga tatbiqi tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodlari: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlarga munosabat va ilm-fan bilan bog'liq fikr-qarashlari ushbu BMIning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishini yozishda adabiyotshunos hamda metodist olimlarimizdan N.Karimov, U.Normatov, D.Quronov, R.Qo'chqorov, B.Nazarov, U.Hamdam, B.To'xliyev, Q.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, S.Matjonov, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalarning ilmiy – metodik maqola va qo'llanmalariga tayandik.

Ishda sharhlash, izohlash, qiyosiy va tahliliy metodlardan, ilg'or texnologiyalardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Adabiyot darslarida yozuichi hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan ma'lumotlar matni ustida olib boriladigan ishlarning mazmunini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi, ta'lim shakllari, vositalari, metod va usullari yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Ishning materiallari va tavsiyalaridan, dars ishlanmalaridan muayyan shoir hayoti va ijodini o'rganishda foydalaninsh mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. BMI mavzusi Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" kafedrasida yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Ushbu tadqiqot natijalari va materiallari Toshkent shahri, Shayhontohur tumanidagi 34- umumta'lim maktabi o'quvchilariga "O'zbek adabiyoti" fanidan dars mashg'ulotlarini o'tish jarayonida amaliyotga joriylashtirilgan, ochiq dars o'tkazilgan (ochiq dars ishlanmasi ilova qilinadi).

Ishning tuzilishi va hajmi.

Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 76 sahifani tashkil etadi.

I bob. Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari

1.1. Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini o'rganish mazmunini belgilash

Adabiyot o'qitish metodikasida tarjimai hollarni o'rganish xususida A.Zunnunov, R.Usmonov, Q.Yo'ldoshev, B.To'xliyev, M.Mirqosimova, S.Matchonov, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova va boshqa metodist-olimlar so'z yuritganlar, biografik ma'lumotlar mazmuni qanday bo'lishi kerakligi haqida ba'zan yo'l-yo'lakay, ba'zan maxsus to'xtalib o'tganlar.

Metodik adabiyotlarda biografik ma'lumotlar haqida bayon etilgan tavsiyalarni umumlashtirar ekanmiz, tarjimai hol mazmuni quyidagi unsurlardan iborat bo'lishi kerakligi ta'kidlanganini ko'ramiz:

- 1) adibning bolalik chog'lari va o'sib ulg'ayishi;
- 2) san'atkorning ijodiy yo'li;
- 3) yozuvchi/shoir/ning ijodiy faoliyati va badiiy mahorati; asarlaridan parchalar /estetik maqsadlar/;
- 4) dasturiy asarning yaratilish tarixi;
- 5) adibning jamiyatda tutgan mavqei, xizmatlari;
- 6) yozuvchi (shoir) haqida uning zamondoshlari¹.

Tarjima holni tashkil etuvchi qismlarning umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek adabiyotini o'qitish nuqtai nazaridan ahamiyati qay darajada ekanligiga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

1. Adibning bolalik chog'lari va o'sib ulg'ayishi.

¹ Niyozmetova R. O'zbek tili darslarida yangi o'zbek adabiyotini o'qitish masalalari. T.,2010, 69-bet.

Tarjimai holning eng xilma-xil mazmun va hajmga ega bo'lgan qismi yozuvchi yoki shoirning yoshligi haqidagi ma'lumotlardir. Bu yerda nimalar aks etishi kerakligi to'g'risida metodik adabiyotlarda turlicha tavsiyalar beriladi. Bu tavsiyalarni umumlashtirar ekanmiz, biografik ma'lumotda san'atkorning o'sib ulg'ayishi, kamol topishi, komil inson bo'lib yetishuvi, ichki dunyosi, ruhiy olami, bu olamning boyligi haqida hikoya qilinishi lozim degan xulosalarni ajratish mumkin.

Maktab darsliklarida bu masala yuqoridagi talab darajasida hal etilmay keldi. Ayrim tarjimai hollarda adibning bolaligi 3-4 gap bilan aytib o'tildi. Bunda uning qaysi maktabda qanday o'qigani, nimalarga ko'proq qiziqqani, necha yoshdan she'r yoza boshlagani ma'lum qilinadi. Masalan, Komil Yashinning tarjimai holida quyidagilarni o'qish mumkin:

"Otasi No'mon Jumaboev o'z o'g'li Komiljonni 6 yoshida Andijondagi eski maktablarning biriga beradi. Harakatchan va ziyrak bola og'ir qiyinchiliklarga qaramay, tezda o'qish va yozishni o'rganib oladi"¹.

Metodik adabiyotlarda adib hayotidagi muhim voqealar (ko'pincha bir-ikki voqea) aksariyat hollarda uning shaxsi qanday kamol topayotganini yoshlarga ibrat qilib ko'rsatish maqsadini ko'zda tutadi deb ta'kidlanadi². Bundan bilish mumkinki, tarjimai holdagi bu ma'lumotlar (hikoyalar) tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bunday voqealar yozuvchi ma'naviyatining shakllanish yo'lini, bosqichlarini, undagi ma'naviyat qay tarzda tarkib topganini ko'rsatish bilan birga o'quvchilarni bundan tegishli xulosalar chiqarishga da'vat etishi bilan qimmatlidir.

Biografik ma'lumotlar, ayrim metodist-olimlarning ta'kidlashlariga ko'ra, adibning shaxsi, ichki dunyosi va ruhiy olami, ma'naviy e'tiqodi va izlanishlarini qamrab olishi kerak. Bizningcha, ma'naviy e'tiqod va izlanishlar haqidagi gaplarni san'atkorning yoshlik yillari va o'sib ulg'ayishi bitiladigan qismda emas, uning ijod yo'li yoritiladigan joyda berilgani ma'qul.

¹ Kattabekov A. Raxmonov V. O'zbek adabiyoti. 8-sinf uchun darslik-majmua. T.: O'qituvchi, 1993.

² Zunnunov A. O'zbek maktablarida adabiyot o'qitish metodikasi tarixidan ocherklar. T.: O'qituvchi, 1980. – 191 b.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining "Adabiyot", "Oʻzbek adabiyoti" darsliklari bilan tanishish shuni koʻrsatdiki, adibning bolaligi, oʻsib ulgʻayish davri juda qisqa yoritiladi va bundan uning ichki olamini, ruhiyatini bilib olish qiyin boʻladi.

Adibning bolaligida yoki maktabda oʻqigan paytida yuz bergan xursandchilik kunlari yoki noxushliklar uning taqdirini maʼlum darajada oʻzgartirib yuborgan boʻlsa, bu voqeadan ham saboq olish mumkin. Baʼzi voqealar adibning yoshlikdagi taqdiriga xayrixohlik uygʻotadi xolos. Masalan, pirimqul Qodirovning tarjimai holidan quyidagi oʻrinni koʻrsatish joiz:

"Maktabda men aʼlochilar qatorida yurardim. Bir yilda ikki sinfni bitirib, uchinchi koʻchirilgan edim. Oltinchi sinfda meni Toshkentga sayohat qilish yoʻllanmasi bilan mukofotlashdi. Lekin maʼlum joylar "otasi boy boʻlgan" deb, mukofotni bekor qilishibdi. SHunda Daminov degan joʻgʻrofiya oʻqituvchimiz: "Axir, otasi hozir kolxozchi-ku!" – deb kuyunib yurgani, lekin uning soʻzi oʻtmagani, meni sayohatdan mahrum qilishgani hech esimdan chiqmaydi"¹.

Oʻzbek adiblarining tarjimai holidan asosan maʼrifiy maqsadlar koʻzlanadi, oʻquvchilar sanʼatkorning buyukligi, el-yurt oldidagi xizmatlari bilan tanishishlari, ularga nisbatan eʼzozlash hissi paydo boʻlgandan keyingina hayot saboqlaridan xabar topib, oʻzlari uchun xulosalar chiqarishlari oʻrinli boʻladi. SHunga koʻra ham, dastlabki biografik maʼlumotda adibning bolaligi haqida 3-4 gap bilan maʼlumot berib oʻtish yoki tarjimai holni toʻgʻridan-toʻgʻri ijod yoʻli bayonidan boshlash maqsadga muvofiqdir.

2. Sanʼatkorning ijod yoʻli.

Adibning ijodiy kamolot sari bosib oʻtgan yoʻli, ijodiy faoliyati biografik maʼlumotda oʻziga xos oʻrin tutib, uning shaxsi, ichki dunyosi, ruhiy olami, qarashlari, maʼnaviy eʼtiqodi qay tarzda shakllanganidan tortib badiiy mahoratini egallashigacha boʻlgan hayot yoʻli oʻz aksini toʻliqroq topadi. Oʻquvchi soʻz ustasining kimligini, orzu-oʻylarini, intilishlarini tarjimai holning shu qismidan

¹ Karimov N., Nazarov B., Normatov U. XX asr oʻzbek adabiyoti. 11-sinf uchun darslik. – T.: Oʻqituvchi, 1995, –295 b.

ko'proq bilib oladi. Demak, bu yerda beriladigan ma'lumotlarning yoshlar uchun ma'rifiy ahamiyati katta.

SHu qism orqali tarixiy davr bilan tanishish ham yuz beradi.

R.Usmonovning fikricha, tarjimai holda san'atkorning ijodiy takomiliga ta'sir etgan voqea va hodisalar bayoni ham aks etishi kerak. Masalan:

"To'rt yil davomida Istanbul dorilfununida tahsil olgan Fitrat taqdirida Turkiya hayoti muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yillar bo'lajak mutafakkir, davlat arbobi, vatanparvar hamda millatparvar olim, yozuvchi Fitratning siyosiy va davlatchilik qarashlarida, dunyoqarashi, san'atkorlik mahorati shakllanishida yo'naltiruvchi ahamiyat kasb etdi" ¹.

Metodist-olim Q.Yo'ldoshev 7-sinf darslik-majmuasida² adiblarning tarjimai hollarini yoritishda ham qaror topgan qoliplarga rioya etilmagani, balki bolalarning tafakkuriga, hissiyotiga ta'sir etish, ularni loqaydlikdan chiqarishga va yozuvchilar hayotining burilish nuqtalariga e'tibor qaratilganini eslatadi.

3.Yozuvchi, shoirning ijodiy faoliyati va badiiy mahorati; asarlaridan parchalar (estetik maqsadlar)

R.Usmonov, Ye.D.pristupa, V.G.Marantsman va boshqa metodist-olimlar o'quvchi tarjimai hol orqali so'z ustasining bosib o'tgan hayot yo'lini o'rganish barobarida uning badiiy mahorati, bu mahoratning o'ziga xosligi, badiiy kashfiyotlarini bilib olishi kerak degan fikrni ilgari suradilar.

O'rni kelganda yana bir muammoga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. O'zbek adabiyoti darslarida yozuvchilarning tarjimai holi, ijodini qanday izchillikda o'rganish kerakligi muhim masalalardan biridir.

Yozuvchining ijodi va badiiy mahorati haqidagi bayonga asarlari yuzasidan beriladigan sharhlar qo'shib yoritilgani ma'qul. Bundan ikki xil maqsad ko'zda tutiladi: birinchisi, adibning badiiy mahoratini ishonarli etib tushuntirish bo'lsa, ikkinchisi, yozuvchining dasturga kirmagan eng muhim asarlari to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilishdir.

¹ Karimov N., Nazarov B., Normatov U. XX asr o'zbek adabiyoti. 11-sinf uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 1995, –350 b.

² Yo'ldoshev Q. O'qituvchi kitobi: Metodik qo'llanma. T.:O'qituvchi, 1997. 11–12- b.

Yuqori sinflarda yozuvchi uslubini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratish zarurligi uqtirilgan. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek adabiyotini o'qitish borasida ham shunga intilish bo'lishi kerak deb o'ylaymiz. "Uslub yozuvchining ijodiga singib ketgan bo'ladi. Uni ijodining ruhi, har bir asardan anqib turadigan xushbo'y hid deyish mumkin. Yozuvchining hayotga munosabatidagi, xarakter yaratishdagi, tasviriy vositalaridagi, fikrlash yo'sinidagi, hatto biografiyasi va shaxsiyatidagi o'ziga xosliklar hammasi birikib, uning uslubini vujudga keltiradi. Biroq uslub mana shunday murakkab hodisa bo'lsa ham, ijodning bir sohasi borki, unda uslub birinchi qarashdayoq ko'zga yarq etib tashlanib turadi. Bu yozuvchining tili. Tilda yozuvchining mahorati ham, estetik printsiplari ham, hayot ranglarini payqay olishi ham, nozik farqlarni his etish qobiliyati ham aniq ko'rinadi.

A.Qahhor uslubi asarlarining o'ziga xos tili orqali namoyon bo'ladi. Yozuvchi ishlatgan so'zlar, u yaratgan jumlar tilimizning boyligini aks ettiradi, milliy xususiyatlarimizni kamalak nurlari kabi tovlantiradi.

Yuqori sinflarda monografik mavzular o'z qobig'ida o'ralib qolmasligi zarur. O'quvchilar bu mavzulardan badiiy tafakkurning rivojlanishidagi ichki bog'lanishlarni, uzviylik va uzluksizlikni ko'ra olishlari darkor. Ma'lum davrlarda u yoki bu badiiy ixtiro boshqa yozuvchilar tomonidan ilg'ab olinadi va rivojlantiriladi. Bunda adabiy an'analarning yangicha taraqqiy ettirilishi kuzatiladi.

Yozuvchi yoki shoir ma'lum janrga asos soladi yoki biror janrni rivojlantiradi, yangicha yo'nalish, oqim ixtiro qiladi yoki ko'pincha mutlaqo yangi badiiy obrazlarni yoxud yangicha uslubni yaratadi. Tarjimai holda bu masala ham tilga olingani maqsadga muvofiqdir.

Umuman, tarjimai holni o'rganish jarayonida yozuvchining ma'naviy olamiga, ijodiy ravnaqiga (mahoratiga) alohida ahamiyat berilsa, ta'lim va tarbiya vazifalari muvaffaqiyatli suratda hal etiladi.

Yozuvchining tarjimai holi turli xildagi materiallar: muallifning hayotidan, ayniqsa, o'rganiladigan asari bilan bog'lab olingan lavha; ijodiy qiyofasi

sermazmun tavsif etilgan maqola; adibning butun hayot va ijod yo'li haqidagi keng xabar ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

O'zbek adabiyoti darslarida bunday keng materiallardan to'liq foydalanish imkoniyati yo'q, albatta. Bu materiallardan kichik parchalar olish to'g'risida fikr yuritish o'rinli bo'ladi.

Badiiy asardan olingan parchalar ham o'quvchini tarjimai holi o'rganilayotgan san'atkorning yashab ijod etgan davri bilan tanishtirishda, uning ma'naviy qiyofasini ochib berishda o'qituvchi uchun ko'rsatmali qurolning eng ta'sirchan va eng samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Biz ham biografik ma'lumotda adib yaratgan asarlardan parchalar berilishi kerak, degan fikrni ma'qul ko'ramiz.

Ta'kidlash joizki, o'quvchi hajmi kichik asarlardan yoki katta asarlardan olingan parchalardan aksariyat hollarda adibning ovozini, ruhiyatini, holatini anglab oladi. Amalda asarning o'zi emas, balki, uning sxemasi, tasodifan ajratib olingan unsurlardan iborat qismigina tahlil qilinadi. Badiiy matodagi "g'ishtchalar", hatto ular to'g'ri saralangan taqdirda ham ma'lum bo'lishicha, badiiy ijod dinamikasining, dunyoning poetik obrazini yaratib beruvchi unsurlarning faoliyat ko'rsatishini izohlab bera olmaydi". Bizningcha, bu narsa she'riy asarlarda yaqqol kuzatiladi. Nasriy asarlardan esa muallifning ovozini taxmin qilish ancha murakkabdir. Bu vazifani nasriy asarlardagi muallif nutqi bajaradi. SHu bois hikoya yoki roman markazidagi muammo, hayotiy hodisalarga muallif munosabatini asardagi muallif nutqidan anglab olish mumkin. O'quvchiga ham adabiy turlar va janrlarning o'ziga xos xususiyatlarini eslatib turish zarur.

4. Dasturga kirgan asarning yaratilish tarixidan.

Yozuvchining ijodiy kamolot sari bosib o'tgan yo'li, ijodiy faoliyati biografik ma'lumotda o'ziga xos o'rin tutib, uning shaxsi, ichki dunyosi, ruhiy olami, qarashlari, ma'naviy e'tiqodi tarjimai holning shu qismida o'z aksini to'liqroq topadi.

Tarjimai holda yozuvchining navbatdagi darsda yoki darslardan birida o'rganilajak dasturiy asarining yaratilish tarixi shu asarning mazmunini

tushunishga, o'quvchilarni shunga ruhiy hamda o'quv-biluv jihatdan tayyorlashga yordam beradi. Bu yordam asarning yozilishiga turtki bo'lgan narsa, voqea-hodisa bayonidan, tarixiy-adabiy davr sharhidan, yozuvchining asar ustida olib borgan ishlari haqidagi ma'lumotdan, zamondoshlari kitobni qanday kutib olgani to'g'risidagi qaydlardan iborat bo'lishi mumkin. SHuningdek, bu qismda asarga singdirilgan g'oyaviy fikrlar, asarning keyingi davrlar, kelgusi avlod uchun qanchalik ahamiyatli ekanligi bayon etilishi mumkin ¹.

Asarning yaratilish tarixi bilan mufassal tanishish, o'quvchilarni tarixiy sharoitga olib kirish davrdagi ijtimoiy vaziyatni ko'rsatish, yozuvchi tanlagan pozitsiyaga e'tiborni qaratish imkonini beradi.

Yozuvchi biografiyasini o'rganishda adib haqidagi ma'lumotlardan, qiziqarli hayotiy voqealardan foydalanish o'quvchilarda uning asarlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Masalan, A.Qahhor biografiyasini o'tishda Kibriyo Qahhorovanning "Chorak asr hamnafas" kitobidan olingan parchalar o'quvchilarni juda qiziqtiradi. Yoki "Hikmatlar" idagi ayrim mazmunli chiroyli fikrlar yozuvchiga bo'lgan hurmat-e'tiborni yana ham oshiradi.

5. Adibning jamiyatda tutgan mavqei, xizmatlari.

Adibning el-yurt oldidagi xizmatlari, jamiyatda tutgan mavqei bajargan davlat ishlari, jamoat ishlari va boshqalar haqidagi fikrlarda o'z ifodasini topadi.

Ayrim tarjimai hollarda san'atkorning ijod yo'li mehnat faoliyatiga qo'shib bayon etiladi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning tarjimai holi shu tarzda (adibning o'z tilidan) yoritilgan¹. Bunda ijodiy faoliyatdan ko'ra ko'proq mehnat faoliyati haqida so'z yuritilgan. Maktab o'quvchisi adibni harakatda, el-yurt xizmatidagi holatini yaqqol ko'z oldiga keltiradi.

Ba'zan adibning ijodi haqidagi ma'lumot so'ngida uning kimligi aytiladi. Masalan, Komil Yashin to'g'risida shunday deyiladi: "K.Yashin Hamza nomidagi Respublika davlat mukofotining sohibi, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining

¹ Usmonov R. K. Yuqori sinflarda yozuvchi biografiyasini o'rganish. T.: O'qituvchi, 1969. –17 b.

¹ Karimov N., Nazarov B., Normatov U. XX asr o'zbek adabiyoti. 11-sinf uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 1995, 159- b.

haqiqiy a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobidir. Unga o'zbek yozuvchilaridan birinchi bo'lib "Mehnat Qahramoni" unvoni berilgan"².

Bu jihatdan, ayniqsa, zamondosh shoirlar haqidagi ma'lumotlar muhimdir. O'tkir Hoshimov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari zamondosh adiblarning ijtimoiy mavqei har qanday o'quvchini qiziqtiradi. Masalan, Abdulla Oripovning O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi, O'zbekiston Qahramoni ekanligini bilish ularda maroq va havas uyg'otadi.

6. Yozuvchi (shoir) haqida uning zamondoshlari.

Ijodkor va uning asarlari to'g'risidagi fikrlar tarjimai holning yakunlovchi muhim bir qismi sanalib, bular ham adibning jamiyatda va adabiyotda (jahon adabiyotida) tutgan mavqeini ko'rsatish shakllaridan biri hisoblanadi. Bunda yozuvchi (shoir)ning faoliyat davrlari, yaratgan asari haqida tanqidiy maqolalardan ko'chirmalar berish, zamondoshlarining xotiralaridan lavhalar keltirish, adibning buyukligini, o'ziga xosligini, uslubini, asarlarining jahon adabiyotida tutgan o'rni, estetik qimmatiga baho beriladi. Masalan A.Qodiriy jahon romanchiligida oltinchi o'rinda turishini aytish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozuvchining buyukligini, adabiyot sohasidagi xizmatlari, jamiyatda tutgan mavqei, milliy ma'naviyatga qo'shgan hissasi, chinakam so'z ustasi ekanligini o'quvchilarga yetkazish zamirida bir tomondan, ma'rifiy maqsadlar yotsa, ikkinchi tomondan, o'rganiladigan asarga ijobiy munosabatni shakllantirish yotadi. So'z ustasining ijtimoiy mavqei, badiiy mahorati haqida chiqariladigan xulosa uchun uning o'zi to'g'risida aytganlari bilan bir qatorda boshqa atoqli kishilarning fikrlari muhim rolg' o'ynaydi. Bu kabi vositalar san'atkorning, adibning boshqalarga o'xshamaydigan qiyofasi va uslubi haqida o'quvchida yaqqol tasavvur uyg'otish uchun xizmat qilishi kerak. Zero, A.Oripovning O'zbekistonni sevishi H.Olimjonning sevishiga o'xshamaydi; Usmon Nosirning yurt tabiatiga maftunligi Cho'lpon lirikasidagi tabiat tasvirlaridan tamoman farq qiladi. Har bir ijodkorning olam go'zalliklarini ko'rishi, his qilishi, tasvirlashi o'ziga xos. Masalan, A.Qahhor hayoti va ijodi haqidagi monografik mavzuni yuqori sinfda yoritishda adib

² Kattabekov A. Raxmonov V. O'zbek adabiyoti. 8-sinf uchun darslik-majmua. T.: O'qituvchi, 1993. – 270 b.

shaxsiga oid halollik, rostgo'ylik, illatlarga murosasizlik kabi xususiyatlarning ijodida aks etish darajasini o'rganish qiziqarli, albatta. Bu o'rinda "O'tmishdan ertaklar" qissasining rus tilida nashr etilishi munosabati bilan tarjimonlik qilgan K.Simonovning "Drujba narodov" jurnalining 1968 yil 10-sonidagi so'z boshisidan ko'chirma keltirish mumkin: "Men Abdulla Qahhor bilan Toshkentda yonma-yon turib ishlagan chog'larimni eslab, uning asarlarini rus tiliga ag'darganimdan, undan saboq olganimdan o'zimni behad baxtiyor hisoblayman. Bundan tashqari, o'sha yillar shunisi bilan esda qoladiki, men shu bahonada Abdulla Qahhordek oqilu dono, hozirjavob, bir so'zli, hatto tili hiyla achchiq, ayni zamonda bag'ri keng, odamshavanda inson bilan do'stlashdim..."

Adibning umr yo'ldoshi Kibriyo Qahhorova u haqda: "Biror yozuvchi yoki shoir o'zbek tilining nazokatini buzsa, ming yaqin, jonajon do'sti bo'lsa ham uni ayab o'tirmasdilar. Abdulla Qahhor faqat o'zigagina emas, hatto tengqurlari, qalamkash do'stlariga nisbatan ham talabchan edilar. Eng avvalo, o'zlari yozadigan har bir so'zni fikr tarozusida obdon o'lchardilar", – deb yozgan edi .

Aynan shu fazilatlari adibning ijodiy faoliyatida, yaratgan asarlari ruhida harakat qiladi. Abdulla Qahhor asarlarida nashtarlik vazifasini kulgu o'taydi. Yozuvchi o'quvchini shunchaki kuldirish uchun yozmaydi, balki tasvirlayotgan hodisaga munosabatini ifoda etishda kulguning xilma-xil turlaridan foydalanadi. Masalan, "O'tmishdan ertaklar"ning "Teshik tosh" bobini eslatish mumkin. Babar degan qashshoq, mushtipar odamning achchiq taqdirini, alamli hayotini tasvirlashda, kitobxonga uning fojiasini his qildirishda yozuvchi achchiq kulgudan asosiy vosita sifatida foydalanadi. Kulgu voqelikni har tomonlama badiiy tahlil qilishga va baholashga imkon beruvchi, o'quvchi tuyg'ulariga ta'sir qilish bilan muayyan kayfiyat va munosabat hosil etishga yordam beruvchi estetik kategoriyaga aylanganligini "Mayiz yemagan xotin", "To'yda aza" hikoyalari, "Shohi so'zana", "So'nggi nusxalar" singari asarlari orqali kuzatish mumkin. Bu asarlar kitobxon qalbida yomonlikka nisbatan nafrat uyg'otishi aniq.

Alohida e'tibor berish lozimki, muayyan adib haqida turli mashhur kishilar aytgan fikrlar o'quvchi ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mashhur kishilar, taniqli

shaxslar, ayniqsa, yirik olimlar va yozuvchilar o'quvchi yoshlar uchun hamma vaqt namuna maktabi bo'lib kelgan. Bunda ayniqsa o'quvchilar uchun o'z millatdoshlarining fikrlari kuchli ta'sir ko'rsatadi. SHu nuqtai nazardan A.Qahhor haqida mashhur adabiyotshunos O.SHarafiddinov yoki M.Qo'shchanov bilan yonma-yon taniqli adib Leonid Lenchning, Konstantin Simonovning fikrlarini keltirish o'rinli bo'ladi. Bu o'quvchilar uchun tasdiqlovchi omil vazifasini o'taydi.

Bundan tashqari, muayyan san'atkorga daxldor turli ilmiy va badiiy asarlardan qaydlar tarjimai holni yana ham boyitadi.

Ijodkor faoliyatining davrlari haqida, u yaratgan asarlar to'g'risida beriladigan ma'lumotda xilma-xil manbalardan ko'chirmalar keltiriladi, ayrim parchalar aks ettiriladi, zamondoshlari xotiralaridan lavhalar, adabiy tanqidchilar fikrlaridan misollar beriladi, adibning buyukligi, o'ziga xosligi, asarlarining jahon adabiyotida tutgan o'rni, estetik qimmatini yoritiladi.

A.Qodiriy bir asrlik milliy adabiyotimiz rivojida ulkan burilish yasagan, yangi bosqichni boshlab bergan, nodir asarlar yaratgan adibdir. U "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" asarlari bilan o'zbek romanchiligiga asos soldi. Bu romanlar zamonaviy jahon adabiyotining nodir namunalari qatorida turadi. Uning qalamiga mansub hikoyalar, hajviy, publitsistik, adabiy-tanqidiy maqolalar, badiiy tarjimalar XX asr o'zbek adabiyoti xazinasidan munosib o'rin olgan.

Yuqorida biz adibning tarjimai holini tashkil etuvchi unsurlarning mazmuni qanday bo'lishi kerakligi masalasiga ayrim-ayrim to'xtaldik. Lekin bundan o'sha qismlarning joylashish tartibi hamma vaqt tasnifdagiday bo'lishi zarur degan ma'no kelib chiqmasligi darkor. Biz tarjimai holning ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'rganish asosan ma'rifiy, qisman o'quvchilarning adabiy tayyorgarligi bilan bog'liq ravishda ta'limiy-estetik ahamiyatga molik jihatlariga urg'u berib o'tdik. Aslida, metodik adabiyotlarda tavsiya etilishicha, bu qismlar ayrim-ayrim emas, balki qo'shib o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Adibning hayoti va ijodiy faoliyatini darsliklarda beriladigan tarjimai hollar yordamida o'rganish ta'lim jarayonini to'liq qamrab olmaslikdan iborat bir yoqlamalilikka sabab bo'ladi. Ayrim ma'lumotlarni eshitish mashqlari sifatida

taqdim etish, ba'zilarini seminarida ma'ruza sifatida o'quvchilarga yetkazish (yozuvchi yoki shoirning tavallud kuni munosabati bilan tashkil etiladigan adabiy kechalar dasturiga kiritiladi, devoriy gazetalarda beriladi), kinoko'rsatuv, diafilg'm, videofilg'm va boshqa materiallardan foydalanish yo'li bilan o'rganish mumkin. Bular biografik ma'lumotlar mazmunini kengaytiradi.

Adibning o'zi haqidagi hikoyasida ko'proq tarixiy davr, tarixiy voqealar bilan bog'lab o'z mehnat faoliyati yoritiladi. Ijodiy faoliyati, badiiy mahorati haqida esa juda kam so'z yuritiladi. Bunday so'z yuritilgan o'rinlar ba'zan hisobotga o'xshab ketadi.

Ba'zan yozuvchi o'z uslubining farqli xususiyatlarini aytib o'tadi. Masalan, Sharof Boshbekov shunday deydi: "Har bir yozuvchining qandaydir o'zigagina xos jihati bo'ladi. Kimdir syujet topishga usta, kimdir noyob xarakterlar yaratishga mohir, boshqalari asar voqealarini zargarona terishda tengi yo'q. Mening eng yaxshi ko'rgan qurolim – yumor. Asar qanday janrda yozilmasin, voqealar qanchalik jiddiy, qahramonlarimning taqdiri qay darajada fojiali bo'lmasin, yumor, hazil-mutoyiba, askiya unsurlari, so'z o'yinlaridan unumliroq foydalanishga harakat qilaman..."².

Nihoyat, aytish joizki, biografik ocherkning tili nisbatan sodda bo'lishi kerak.

Hajm masalasi. Tarjimai hol sermazmun bo'lishi bilan bir qatorda hajm jihatdan katta bo'lib ketmasligi, o'quvchilarning imkoniyat doirasidan chetga chiqmasligi, ularni zo'riqtirishga olib kelmasligi, o'ta zarur ma'lumotlar bilan qurollantirishni ko'zda tutmog'i lozim.

Adib hayoti va ijodining ilmiy bayoni: a) muayyan adibning yozuvchi va mutafakkir sifatidagi mavqei; b) yashagan davrida tutgan o'rni; v) ijodkor uslubi va uning shakllanishi; g) adibning milliy-ijtimoiy tafakkuri va adabiyot taraqqiyotiga qo'shgan hissasi; d) uning umumjahon badiiyati va tafakkuri rivojiga munosabati; e) milliy g'oya va milliy qadriyatlar tarkibidagi o'rni singari masalalardan tashkil topsa, o'quvchi e'tiborini jalb etishga yordam beradi.

² Kattabekov A. Raxmonov V. O'zbek adabiyoti. 8-sinf uchun darslik-majmua. T.: O'qituvchi, 1993. – 195 b.

Yoshlarning komil inson sifatida shakllanishida milliy an'analar, qadriyatlar, ma'naviy boyliklar, davr ijtimoiy hayotining roli beqiyosdir. Bunday ma'lumotlar tarjimai hollar mazmunini to'g'ri belgilash orqaligina mukammal bo'la oladi. SHu bois tarjimai hollar mazmuni qanday bo'lishidan qat'i nazar birinchi navbatda adibning o'zi haqidagi hikoyasi bilan ijodi to'g'risidagi maqola qo'shilgan holda berilishi lozim.

Xullas, yozuvchining tarjimai holini va ijodiy faoliyatini o'rganish, bir tomondan, ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarga davr ruhini chuqurroq anglatish, ijtimoiy munosabatlarni ular qalbiga yetkazish, ularni milliy istiqlol mafkurasi, milliy ma'naviyatga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalash, adibning adabiyot ravnaqida va jamiyatda tutgan mavqeini, uning novatorligini ko'rsatish orqali adabiy jarayonning rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglatish, yozuvchi shaxsining kamol topishi, ruhiy olami misolida yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etish, eng muhimi, o'rganilajak asarning yaratilishiga turtki bo'lgan voqea-hodisalar bilan tanishtirish, shu orqali parcha mazmunini to'liq tushuntirish, imkon yaratish uchun xizmat qiladi; asarni o'qish uchun havas uyg'otadi.

1.2 Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini o'rganish ustida olib boriladigan ishlar

Badiiy asarlarni o'rganishda uning muallifi haqidagi ma'lumotlar ham ayricha ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlar ko'pincha, asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini teranroq anglashda, asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini to'g'ri belgilashda yordam beradi. Mazkur ma'lumotlar qaerlardan olinadi?

Ularni adiblarning o'zlari yozib qoldirgan tarjimai hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holda yetib kelgan manbalardan olinishi mumkin. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir.

Masalan, Abdulla Oripov haqida gapirib turib, Erkin Vohidov shunday degan edi: "Barcha isyonkor shoirlar kabi Abdullaga ham oson bo'lgan emas. Qattol tuzum qamchisidan u ham omon qolmagan. Lekin ruhiy azoblar, siquvlar, ming iztiroblar so'nggida shoirga nasib bo'lgan kattakon baxt shuki, u xalqi mehrini qozondi, o'zi kurashgan ozodlik va mustaqillik g'oyasining kurtak yozganiga guvoh bo'ldi. Shoir uchun bundan ortiq saodat yo'q"³. SHoirning baxti uning dardkash qalbidagi inja tuyg'ularning samimiyligida, Vatan degan so'zning butun salmog'ini, zalvorini, shukuhini qalbiningn tub-tubi bilan teran anglaganidadir.

Taniqli shoir Usmon Azim aytganidek, "Uning toza, yuksak, samimiy hech kimu hech narsadan hayiqmaydigan ovozi birdan O'zbekistonni larzaga soldi. Abdulla Oripovning har bir satri, har bir she'ri bilan adabiyot o'zbek adabiyotiga qayta boshladi.

Shoiring birinchi kitobi misli ko'rilmagan hayajon bilan kutib olindi. G'ayrat va jasorat bilan yo'g'rilgan she'rlar yuraklarga, ruhlarga "Vatan" degan tug'yoning mangu hayot muhabbatini sohib o'tdi. Hozir biz "O'zbekiston Vatanim manim" deb jo'ngina aytayotganimiz satrlarni, u paytlarda hasratu g'ussalar ichida ko'z yoshlarimiz tirk'irab yod aytganlarimiz yodimda.....

Abdulla Oripov she'riyati — sho'rolarning qudratli mafkurasi siquvi ostida sarosimada qolgan yuraklarga sharaf bilan yashashning yagona yo'li – Vatanni sevmok ekanligini o'rgatishga xizmat qildi. Vatanni ozod ko'rishni istagan va keyinchalik bu yo'lda sayi harakatlar qilgan insonlarining ko'pchiligiga ham Abdulla Oripov she'riyati madad bo'lganiga guvohmiz. Abdulla Oripov she'riyati mustamlakachilik davrida ham o'zbekda oru nomus barqaror ekanligi haqida kelajakka ko'rsatadigan o'lmas hujjatlarimizdandir".⁴

Bunday fikrlardan adabiyot darslari jarayonida foydalanish o'quvchilarning badiiy adabiyotga, uning ijodkoriga nisbatan qiziqish va muhabbatini yanada kuchaytiradi.

³ O'z AS, 2001 yil, 23 mart.

⁴ Usmon Azim. Vatanni sevmokni o'rgatgan shoir. // O'z AS 2001 yil, 23 mart.

Professor B.To‘xliyev “Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida adib hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan batafsil ma’lumotlar bayon etilgan¹.

Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida adibning o‘z fikrlaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Masalan, Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodini o‘rganishda bevosita uning o‘z asari – “Qutadg‘u bilig”ga murojat qilish o‘rinli bo‘ladi. Buning asosiy sabablaridan biri adib haqida boshqa ilmiy, tarixiy manbalarda tegishli axborotlarning saqlanib qolinmagani yoki hozircha topilmay turishidir.

Kitob muqadimasida adib o‘zining tug‘ilgan yurtini eslatib o‘tadi:

Munuqi turug‘laq Quz o‘rdu eli,
Tub-asli, nasabdin yurumish tili.
Buning tug‘ilgan eli, Quz o‘rdudir,
Tub-asli, nasl-nasabdan tili so‘z ochdi.

Quz o‘rdu turkiylar istiqomat qiladigan qadimiy shaharlardan biri.

U Bolosag‘un nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Bu shahar XI asrda yaratilgan yana bir muhtasham obida – Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ot it-turk” asarida bir necha marta tilga olinadi. Jumladan, bu shaharning arg‘un lahjasida Quz ulus, o‘g‘uz lahjasida esa Quz o‘rdu deb yuritilishini Mahmud Qoshg‘ariy maxsus qayd etadi.

Yusuf Xos Hojib ham, Mahmud Qoshg‘ariyga o‘xshab ko‘pgina o‘lkalarni kezib chiqqan, talaygina sayru-sayohatlarda bo‘lgan, chamasi. Uning quyidagi misralari shunday fikrga undab turadi:

Bu tug‘mish elindin chiqib barg‘ani,
Kitabni qo‘shuban tugal qilg‘ani.
Bu o‘z tug‘ilgan elidan chiqib borgani,
Kitobni jamlab tugal qilgani (haqida gapiradi).

Adib asarini yozishga bir yarim yil vaqt sarflaydi.

¹ To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T., Yangi asr avlodi, 2006,113-bet.

Tugal o‘n sakkiz ayda aydim bu so‘z,

O‘durdum, adirdim so‘z evdim tera.

Bu so‘zlarni tugal o‘n sakkiz oyda aytib bo‘ldim,

Tanladim, farqladim, terib so‘z yig‘ib (to‘pladim).

O‘n sakkiz oy, tabiiyki, asarni bevosita yozish uchun sarflangan muddat. Adibning unga katta tayyorgarlik ko‘rgani va ko‘pkuch sarflagani aniq. Har holda asarning Qashg‘arda tugatilgani maxsus qayd etiladi:

Barusi bitilmish, yeturmish nizam,

Bu Qashg‘ar elinda qo‘shulmish tamam.

Borini yozdim, tartib berdim,

Bu kitob Qashqar elida tamom yozildi.

“Qutadu bilig” da dostonning yozilishi sanasi ham qayd etilgan:

Yil altmish eki to‘rt yuz bila,

Bu so‘z so‘zladim men tutib jan sura.

To‘rt yuz oltmish ikkinchi yil edi,

Men jonni koyitib ushbu so‘zni so‘zladim.

To‘rt yuz oltmish ikkinchi - hijriy yili. Uni milodga aylantirsak, 1069-1070 yillarga to‘g‘ri keladi.

Adibning ismi Yusuf ekanligi haqida asar so‘nggidagi qasidalardan birida o‘qiymiz:

E Yusuf, kerak so‘zni so‘zla ko‘ni,

Keraksiz so‘zug kezla, qilg‘a qo‘r-a.

Ey Yusuf, kerak so‘zni ro‘yi rost so‘zla,

Keraksiz so‘zni yashir, (chunki u) ziyon qiladi.

Kitob Qashqar eligi – hukmdori Tavg‘ach ulug‘ Bug‘roxonga tortiq qilinadi. Buning evaziga esa u Xos Hojiblik lavozimi bilan taqdirlanadi. Asardagi nasriy muqaddimada shunday deyiladi: “Ammo bu kitobni Qashg‘arda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg‘achxon uskinga kekurmish, malik ani ag‘irlab, ulug‘lab o‘z Xos Hojibliki anga bermish turur, aning uchun Yusuf Ulug‘ Xos Hojib teb ati-javi yazilmish turur (ya‘ni), «Ammo bu kitobni Qashqarda tugal qilib, Mashriq maliki

Tavg'achxon dargohiga keltiribdi. Malik uni yorlaqab, ulug'lab, o'z (saroyida) Xos Hojiblik (lavozim)ini unga beribdi. SHuning uchun Yusuf Ulug' Xos Hojib deb mashhur nomi tarqalibdi».

Dostonda adibning yoshi borasida ham ayrim ishoralar mavjud:

Tegurdi menga algi ellik yashim,

Qug'u qildi quzg'un tusiteg bashim.

Ellik yoshim menga qo'l tegizdi,

(Qora) quzg'un tusidek boshim(ni) oqqush(dek) qildi

(ya'ni sochim oqardi).

Yoki:

O'tiz yig'mishin yandru aldi elig,

Neku qilgay altmish tegursa alig.

O'ttiz (yosh) yiqqanlarini ellik (yosh) qaytarib oldi,

Agar oltmish (yosh) qo'l tegizsa, nimalar qilar ekan?

Bulardan ko'rinadiki, adib asar yozilgan paytda ellik bilan oltmish orasida bo'lgan.

Mana bunday muallif izohlari, eslatmalari badiiy ijodning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun ham, adibning shaxsiyatiga aloqador bo'lgani ma'lumotlarni oydinlashtirish uchun ham, o'rni-o'rni bilan esa muayyan bir adabiy hodisaning ijtimoiy-estetik ahamiyatni tasavvur etish uchun ham favqulodda katta yordam berishi mumkin bo'ladi.

Adabiyotshunos olim D.Quronov bu haqda yaxshigina kuzatishlarini e'lon qilgan: «Ko'pincha el ichida ijodkorlar to'g'risidagi turli-tuman mish-mishlarga, uzunquloq gaplarga duch kelinadiki, goho ularning bir-biriga tamomila zidligiyu aql bovar qilmas darajada ajabtovurligidan shoshib qoladi kishi. Albatta, bu nav mish-mishlar el nazdida katta obro'-e'tibor topgan kishilar hayotiga qiziqishning zo'rligidan yuzaga keladi. Biroq o'ylashimizcha, buni ommaviy qiziquvchanlikning o'zi bilangina izohlash kam ko'rinadi. Zero, buning asosiy sabablaridan biri sifatida adabiyotshunosligimizda ijodkor biografiyasini o'rganishga yetarli e'tibor berilmasligini ko'rsatishga moyilmiz. Hatto, sir emas,

ijodkor biografiyasi bilan bog‘liq ishlarga mensimasdanroq, ilmdan yirog‘ hodisa sifatida qarash hollari ham yo‘q emas. Holbuki, adibu shoirlar hayotiga oid faktlarni to‘plashu ilmning chinakam «qora ishi» sifatida baholanishi kerak. Sababki, bu xil ishlar konkret ijodkorning shaxs va san’atkor sifatidagi tadrijini kuzatish yoki konkret asarning ijodiy tarixini, uni to‘g‘ri talqin qilish uchungina emas, ijod psixologiyasi, ijodkor va jamiyat munosabati kabi qator umumestetik muammolarni yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi»⁵. SHunga qaramay, muallifning shaxsiyati uning asarlarida turlicha aks etishi mumkin. Ba’zan u ochiqdan ochiq ifodalansa, ba’zan muayyan vositalar org‘ali tasvirlanashi, ba’zi hollarda esa muallifning shaxsiyatini bevosita idrok etish ancha qiyin kechadi. Badiiy asarning ijodkor shaxsiyatining ifodachisi ekanligini anglab yetgandan keyingina asar mohiyati ham, uning muallifning nuqtai nazarlari ham o‘quvchiga to‘laroq va teranroq tushuniladi. SHundagina muallifning adabiyotga, jamiyatga, shu xalq va millatga bo‘lgan muhabbati va xizmatlari to‘la idrok etiladi.

«Yozuvchi, san’atkor oddiy kishilardan shu bilan ham farq etadiki, uning asarlarida hayot hodisalari, faktlar faqat qayd etilibgina qolmaydi. Har gal biror hodisa, fakt haqidagi hikoya – yozuvchining, san’atkorning shu narsaga, hodisaga, pirovardida- kishilarga ijobiy yoki salbiy munosabati bilan sug‘orilgan bo‘ladi. Bu «munosabat faktori» shunchalik muhimki, faqat ugina bizga hodisa haqida haqqoniy, mukammal, yorg‘in tasavvur bera oladi. San’atkorning ijobiy munosabati, mehri va muhabbati bilan qizdirilgan hayotiy fakt, xuddi endigina cho‘g‘dan olingan temirdek, o‘z rangi, harorati, fazilatlarini bilan hayratga solishi va tahsinimizga sazovor bo‘lishi mumkin»⁶.

Ta’lim jarayonida «Sayohatnoma» o‘rganilyapti deylik. Bunda muallifning tarjimai holiga, yoki yanada aniqrog‘i shaxsiyatiga oid qaysi jihatlarga urg‘u berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi?

⁵ Quronov D. «Adabiyot nadir» yoki Cho‘lponning mangu savoli. Adabiy-taniidiy maqolalar.- T.: «Zarqalam», 2006,40-41-betlar.

⁶ Izzat Sulton. Navoiyning ialb daftari. Buyuk shoir payoti va ijodi rzining va zamondoshlarining tasvirida. – Toshkent, o‘afur o‘ulom nomidagi adabiyot va sanhat nashriyoti, 1969, 11-bet.

Asar matni ustida ishlash asnosida muallif nuqtai nazarini aniqlashga imkon beradigan nuqtalarga o'quvchilar e'tiborini tortish, shu asosda muallif aytgan fikrlar zamiridagi aytilmagan nuqtalarni topishga imkon qidirish mumkin bo'ladi⁷.

Ayrim adiblarning tarjimai holini o'rganishda boshqa kishilar, mashhur shaxslar, yirik olimlar, yirik davlat va jamoat arboblarning fikrlaridan ham foydalanish mumkin bo'ladi. Masalan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammadrizo Erniyozbey o'g'li Ogahiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat singari ko'plab mumtoz adabiyotimiz vakillarining hayoti va ijodini o'rganishda shu usuldan foydalanish yaxshi samara beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur

«Chig'atoy sultonlarining eng sarasi va zo'r shijoatlisi edi»

Hasanxo'ja Nisoriy

«Bobur dilbar shaxs. Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan, u san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarrog' bo'lib, ko'p yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan».

Javoharlal Neru

«Bobur Mirzo so'z bilan jonli tasvir yaratish mahoratini mukammal egallagan adib edi. Buni o'zi ham sezardi. SHuning uchun umrining oxirida o'g'li Humoyunga «Boburnoma»ni tugallab taqdim etganda unga bir ruboiy ilova qiladi:

*Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum,
Har kim bu vaqoyi'ni o'qir, bilgaykim,
Ne ranju ne mashaqqatu ne g'amlar ko'rdum.*

«Vaqoyi'» - «Boburnoma»ning dastlabki nomi edi. Bobur o'z zamonasida boshdan kechirgan barcha ko'rguliklarni haqqoniy tasvirlashga intilganining

⁷ Qarang: Karimov F. Muqimiy. hayoti va ijodi. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1969, 220- 244-betlar.

sababi bu ruboiyda aniq ko'rsatiladi. Uning eng zo'r istagi «Vaqoyi»ni o'qiganlar haqiqatni bilsinlar, u qilgan xatolarni takrorlamasinlar.

«Boburnoma» ham «Temur tuzuklari» kabi avlodlarga ulkan hayotiy tajriba, sabog' va qisman vasiyat tarzida yozilgan edi.

Adibning Hindistonda tartib bergan so'nggi devonida uning dastxati saqlanib qolgan. Bu dastxat bilan ikki satr she'r yozilgan:

Har vaqtgi ko'rgaysen mening so'zumni,

So'zumni o'qub sog'ingaysen o'zumni.

Ushbu satrlar bitilgan sahifa chetiga Bobur Mirzoning chevarasi SHohijahon tomonidan quyidagi sharh bitilgan:

«Ushbu turkiy bayt jannatmakon hazrat Bobur podshohning o'z qo'llari bilan bitilgan dastxatdir. SHohijahon binni Jahongir binni Akbar binni Humoyun binni Bobur podshoh»⁸.

Yirik adiblarimizning hayoti va ijodini o'rganishda xronologik jadvallardan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ko'plab fakt va hodisalar haqida qisqa muddatda ma'lumot berish imkonini yaratadi.

Yozuvchining tarjimai holini o'rganishda uning o'z fikrlaridan foydalanish ham keng tarqalgan usullar turkumiga kiradi. Ammo bunda ham me'yor bo'lishi shart. Chunki, ayrim hollarda yozuvchining o'z so'zlarida ham zamonaning, uni qurshab turgan muhitning, bularning yonida esa biz tasavvur qila oladigan va qila olmaydigan ko'plab ob'ektiv va sub'ektiv omillarning kuchi ham bo'lishi mumkin.

«Misol uchun Cho'lponning 1933 yilda yozuvchi V.Yanga aytgan gaplarini olaylik. Shoir otasining «musulmonchilikka haddan ziyod berilgani»yu o'g'lini mudarris qilishga ahd qilganini aytarkan: «Ammo mudarrislik qilish o'rniga men milliy o'zbek yozuvchisi bo'lishga ahd qildim, otamdan ham, mullalardan ham qochib Toshkentga bordim va u yerda she'rlar, hikoyalar yozib, jurnallarga yubordim». Cho'lponning, o'zi aytmoqchi, «Toshkentga qochib borishi» 1913-14

⁸ (Pirimqul Qodirov. «Davron meni o'tkardi saru somondin.....». Bobur Mirzoning so'z sanhati.- // O'zbekiston Adabiyoti va sanhati, 2002 yil, 18 yanvarg')

– yillarga to‘g‘ri keladi, Chunki uning ijodiy faoliyati ayni shu davrda boshlangan. Endi faktlarga murojaat qilaylik: «Sadoyi Farg‘ona» gazetasining ilk sonlaridan birida, aniqrog‘i, 1914 yil 4-sonida, gazetaning Andijondagi «Obuna va e‘lon qabul qiladigan vakili» Sulaymonqul Yunus o‘g‘li ekanligi qayd qilingan. Keyinroq, 6-sonida otaning yonida «Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusov» qo‘shiladi. Demak, 1914 yil aprelida Cho‘lpon otasi bilan birga «Sadoyi Farg‘onaning Andijondagi vakili bo‘lib turgan. Ayni shu aprelg‘ oyida Toshkentda chop etilgan «Sadoyi Turkiston» gazetasida uning «Turkistonli qardoshlarimizga» she‘ri va «Qurboni jaholat» hikoyasi e‘lon qilingan. Keyin ham Cho‘lpon har ikki gazetada hikoya, maqola, she‘rlar e‘lon qilib turgan. Bundan ko‘rinadiki, Cho‘lponning qarshisida yozuvchi bo‘lish uchun otasidan qochib Toshkentga borish zarurati bo‘lmagan. Xo‘sh, unda nega Cho‘lpon yana yuqoridagicha ma‘lumot beradi? Gap shundaki, 1933 yilga kelib Cho‘lpon boshida anchagina tahlikali vog‘ealar o‘tgan, nomi hamon qora ro‘yxatlar boshida turgan edi. Tabiiyki, 30-yillar sharoitida shoirning ijtimoiy kelib chiqishiyoq uni «yot unsur sanashga yetarli asos bo‘lishi mumkin edi. Ayni shu xil vaziyatda Cho‘lpon o‘ziga zamonabop «biografiya» yaratishga intilgan bo‘lsa hech ajablanarli emas»⁹. D.Quronov muayyan adiblar haqidagi xotiralarga ham ana shunday ehtiyotkoranalik bilan yondoshish zarurati borligini uqtiradi¹⁰.

Bularning barchasi yirik metodist olim S. Dolimovning «yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish uning dunyoqarashini aniqlashga yordam beradi. Bu esa unga to‘g‘ri baho berish uchun zamin hozirlaydi»¹¹, - degan mulohazalarining nechog‘lik to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib turadi.

Darhaqiqat, yozuvchi tarjimai xolini o‘rganishda o‘quvchilarni uning o‘zi yashab ijod etgan davrdagi ijtimoiy jamiyat va tarixiy muxitga munosabati bilan tanirtirish- ma‘rifiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiyning Xusayn Boyqaro saltanatida, A.S.pushkin va L.N. Tolstoylarning Rossiya kibarlari jamiyatida, Mahmudho‘ja Behbudiy, Abdulla

⁹ Quronov D. «Adabiyot nadir» yoki Cho‘lponnin mangu savoli. Adabiy-tanqidiy maqolalar.- T.: «Zarqalam», 2006,44-45-betlar.

¹⁰ O‘sha kitob, 46-bet.

¹¹ Dolimov S., Ubaydullaev H., Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi, - T.: O‘qituvchi, 1967, 239-bet.

Avloniylarning asrimiz boshlaridagi milliy uygʻonish harakatida tutgan mavqelari sharhlangandagina ularning ijodi chuqur oʻzlashtirilishi mumkin.

"Yozuvchini, deb qayd etgan edi A. Qodiriy, - garchi shaxsan tanilmasa ham asarlarini oʻqib qanday tabiatli shaxs ekanini goyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida uz tabiatini, ruxini tasvirlaydi"¹².

Yozuvchi shahsiyati, dunyoqarashi, xayotga boʻlgan munosabati esa uning ijodiy oʻziga xosligi aks etadi. U yoki bu yozuvchi asarlari xususida suz yuritilar ekan, mualliffning ijodiy oʻziga xosligiga tayaniladi. Negaki, bir qalamkashga mansub asarlar oʻzaro shakl va mazmun jihatidan farqlansa-da, ularni mualliffning ijodiy oʻziga xosligi birlashtirib turadi. Ijodiy oʻziga xoslikni bir yozuvchining turli asarlarini oʻzaro taqqoslash orqali ham, boshqa yozuvchining asarlariga qiyoslash orqali ham aniqlash mumkin. Masalan, Usmon Nosirning ijodiy yoʻli tahlil markaziga qoʻyilganda, uning oʻziga xosligini "Yur, togʻlarga chiqaylik", "Yoʻlchi", "Yurak", sheʼrlarini oʻzaro chogʻishtirish yoki Hamzaning "Yigʻla Turkiston!", H.Olimjonning "Xolbuki tun", Gʻafur Gʻulomning "Sen yetim emassan!" sheʼrlariga taqqoslash yordamida tushuntirsa boʻladi.

Hassos shoir, yetuk dramaturg, taniqli olim, mohir tarjimon Maqsud Shayxzoda tarjimai holi ham oʻziga xosligi bilan ajralib turadi.

Uning asarlari "Oʻqish kitobi" (4-sinf) darsligida berilgan "Toshkentnoma" (parcha) dostonidan boshlab, umumtaʼlim maktablarida turli miqyosda oʻrganiladi. Jumladan, shoir ruboyilariga 7-sinfda 1soat ajratilgan bulsa, "Mirzo Ulugbek" fojeasiga 8-sinfda 3 soat rejalashtirilgan.

Koʻrinadiki, oʻquvchilar tayanch maktabi doirasida M.SHayxzoda ijodi boʻyicha yuzaki maʼlumot oladilar, buning uchun ham adabiyot oʻqituvchisining zimmasida kirish mashgʻulotlarida M.SHayxzodani shoir, olim, dramaturg va tarjimon sifatida kashf etishdek maʼsuliyatli vazifa turadi.

Shoir hayoti va ijodi tahlilida uning boshiga tushgan taqdir oʻyinlarini eslatish foydadan xoli boʻlmaydi. Binobarin, 1928 yilda tugʻilib oʻsgan ona yurti -

¹² Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. - Toshkent: Fofur Fulom nomidagi Adabiyot va sanhat nashriyoti, 1986. 140-bet.

Ozarboyjonning Ganja viloyatidan o'sha davr siyosatiga shakkoklikda ayblanib Toshkentga badarg'a qilinishi, urushdan sung 1952 yilda xalk dushmani degan dahshatli ayblov bilan qamalishi, lekin shunga qaramay, "Mirzo Ulug'ek", "Toshkentnoma"dek vatanga cheksiz mehr-muhabbat bilan yo'g'rilgan yuksak badiiy asarlar yaratib, ijodiy jasorat ko'rsatganini tushuntirish orqali yozuvchi shaxsiyati to'g'risida qizg'in fikr uyg'otish mumkin. Bu esa, M. SHayxzoda ijodiy laboratoriyasi bilan chuqur tanishib, asarlari mag'zini chaqish, qahramonlari bilan tanishish uchun kalit vazifasini o'taydi.

O'zbek adabiyotining nurli siymolaridan bo'lgan Maqsud SHayxzodaning hayoti va ijodiga bag'ishlangan suhbat-hikoya "Toshkentnoma" dostonidan olingan quyidagi misralarni ifodali o'qish bilan boshlangani ma'qul:

Umrin bino bo'ldi Ozarbayjonda,
Kechdi bolaligim u gul makonda.
Nizomiy vatani, Ganja o'lkasi
O'pkamga to'ldirdi she'r xavosini,
Lekin shoirlikning nozik tolei
Kuldi Sirdaryoning xavzalarida...
Hazrat Navoiyning o'pib qo'lini
O'zbek vodiysida otimni surdim.

Shu parchaning o'ziyoq qator savollarni tug'diradi. She'riy parchada kim haqida so'z yuritilgan? Shoir "Umrin bino bo'ldi Ozarbayjonda" deganida nimani nazarda tutadi? Ozarbayjonda tug'ilgan bo'lsa, Toshkentga qanday kelib qoldi va hakazo. Bu savollarga javob berish uning o'ziga xos hayot va ijod yo'lini chuqurroq anglashga yo'l ochadi.

Adabiy ta'limdan ko'zlangan maqsad – Barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirishda mashg'ulotlarni mavzuga oid kundalik, maktub va esdaliklardan foydalangan holda tashkil etish ijobiy samarasini beradi. Jumladan, 7-sinf adabiyot darslarida Abdulla Qahhor hayoti va ijodini xatlarga bog'lab o'rganish yozuvchiga xos sinchkovlik, g'amxo'rlik va talabchanlik jihatlarini yuzaga chiqaradi. Ilk mashqi bosilib chiqqan talaba O'tkir Hoshimovga yo'llagan maktubi misolida

yozuvchining kamol topayotgan iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashi, ularga xayrixohligi namunasini sezish mumkin. Masalan:

“Cho'l havosi”ni o'qib, – deb yozadi Abdulla Qahhor, – suyunib ketdim. Birdan lov etib, alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi. Qissa sof, samimiy, tabiiy, iliq, rohat qilib o'qiladi. Qissaning xat shaklida bo'lishi ko'p o'rinlarda sizni cheklab qo'ygan. Asar bosh qahramon tilidan hikoya qilinganida ham shunday bo'lardi. Kelgusida buni hisobga oling. SHu alanga hech qachon pasaymasin. Ijodingiz hech qachon tutamasin. Salom bilan, Abdulla Qahhor” .

O'zbek adabiyoti bo'stonida shaxsiy hayoti va ma'naviy fazilatlari bilan bugungi kun o'quvchisiga o'rnak bo'la oladigan adiblar ko'pchilikni tashkil etadi. Jumladan, taniqli hikoyanavis, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad shunday ijodkorlardan biridir. Kitobxonlarga yozuvchi ayni navqiron yigitlik chog'ida ko'plab o'zbek ziyolilari qatori nohaq qatag'onga uchrab, umrining besh yilini Qozog'istonning Jezqozg'on konlarida o'tkazgani sir emas. Surgundalik yillari uning irodasi metinday toblandi, haqiqat hech qachon yengilmasligiga ishonchi ortdi. El-yurt manfaati, istiqloli uchun butun umri, kuch-g'ayrati, qalb qo'rini baxshida etgan insonlar nomi abadiyatga daxldordir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining Adabiyot fani o'quv dasturida Said Ahmad umrbayoni va ijodi bilan tanishishga 6-, 8-sinflarda 2 soatdan vaqt ajratilgan. Yozuvchi tarjimai holi u mahbusligida rafiqasi Saida Zunnunovaga yozgan maktublar bilan uzviylikda o'rganilsa, shaxsiyatining muhim qirralari, sho'rolar davridagi muhitning biqiqligi, adibning atrofidagi insonlar bilan munosabatlari haqida mustaqil fikr-mulohaza yuritishga zamin yaratiladi. Buning uchun esa maktublarga bag'ishlangan sinfdan tashqari mashg'ulotlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Kutilgan natijalarga erishishida dastlab loyiha tayyorlanishi, ta'lim maqsadlari puxta rejalashtirilishi, metod va usullar to'g'ri tanlanishi hamda o'rganilayotgan mavzu mazmun-mohiyatini ochishga qaratilgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqilishi zarur.

Mustaqil izlanishlarni tashkil etishda vazifalar qanchalik aniq bo'lsa, o'quvchilar faoliyati shunchalik yengil kechadi. Mashg'ulotga qadar o'quvchilarga

xatlarning mavzusi, tuzilishi, g'oyasini o'rganish; badiiy tasvir vositalarini topish; taassurotlarini bayon qilish; o'tgan asr va mustaqillik davri adiblari ijodining farqli jihatlarini belgilash vazifalari topshiriladi.

Manbalarni topishda esa axborot-kutubxona fondidan foydalanishga doir tavsiyalar berilib, adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi. Vaqti-vaqti bilan topshiriqlar ijrosi yakka yoki jamoa tarzida savol-javob, suhbat usullarida nazorat qilib turiladi.

Mashg'ulot maqsadi murakkab insoniy his-tuyg'ular yuzasidan mushohada yuritish va muayyan xulosalar chiqarishni taqozo etadi. Shu bois o'quvchilardan muallif ichki kechinmalari aks etgan jummalarga ijodiy yondoshishlari talab etiladi. Binobarin, yozuvchi xarakter xususiyatlari, tafakkur doirasi nafaqat asarlarida, balki maktublardagi har bir so'zda o'zining teran ifodasini topgan.

Yurakdan qog'ozlarga ko'chgan haroratli satrlar o'quvchilarning hayotga bo'lgan qarashlarini o'zgartirishi, qahramonning sermashaqqat, ammo havas qilishga arzigulik umr sahifalari esa ibrat bo'lishi, shubhasiz.

Botiniy ehtiyojlari mahsuli bo'lgan yozishmalarda bu juftlikning bir-biriga samimiy muhabbatlari, maqsadi yo'lidagi kurashlari va e'tiqod qo'ygan jamiyat adolatsizligidan norozilik ohanglari sezilib turadi.

Adib po'rtana misol tug'yon urayotgan hislarini g'oyatda nuqtadonlik bilan tasvirlab, "chinakam do'sti"ni yorug' kunlar kelishiga ishontiradi:

"... Yozgan xatingizda "hasratimni yozay desam, qalamga o't tushib qog'oz kuyib ketdi", debsiz.

O'sha kuygan qalam bilan qog'ozning yolqini mening ham qalbimda alanga olib ketdi. Qalamni kuydirmang. Hijron o'tida toblansin, chiniqsin. Qalam qancha qora bo'lsa oppoq qog'oz betida jonli manzaralarni yanada jonliroq yaratadi. Mana shu qog'ozlarda tasvir etganimiz manzaralardan poyonoz qilib kelajakka bormog'imiz kerak. Ha, birga bormog'imiz kerak. Ruhan tusha ko'rmang. Kitob bilan qalam ulfatingiz bo'lsin.

Men xuddi shunday qilyapman ...".

Da'vatlariga javoban Saida Zunnunova Said Ahmad kutganidan-da qat'iyatli bo'ldi va hech qachon nomard kimsalar oldida bosh egmadi.

Xo‘rlıklar, ta‘qiblar, “xalq dushmani”dan voz kechish kerakligi haqidagi da‘volarga chidab, bardosh va sadoqatdan o‘zbek ayoliga haykal qo‘ya oldi.

Muallif o‘zligini yuzaga chiqarishi barobarida maktublar begona tuproqda yurt sog‘inchidan o‘rtangan inson qiyofasini yaqqol gavdalantiradi:

“... Radio Toshkentdan eshittiryapti. Tanish ovozlari, kontsert va nihoyat torda “Cho‘li Iroq”.

Butun vujudim bilan torning titroq sadolariga berilib ketdim, balki ko‘zimdan yosh ham chiqqandir, sezmadim ...”.

Kun kelib orzular amalga oshdi. Adib oqlandi va ozodlikka chiqdi. Vatani va xalqi oldida yuzi yorug‘ bo‘ldi. Bunga esa osonlikcha erishilgani yo‘q, albatta ...

Demak, xatlar bu juftlik ma‘naviyati ko‘zgusi, armonlari ro‘yobi hamda haqiqat tantanasiga ilinj manbai bo‘lganligini qayd etish mumkin.

Tahlildan kutilgan natijalarga erishishda savol-javoblar o‘tkazish o‘quvchilarda ijodkor shaxsiyatidagi evrilishlar yuzasidan paydo bo‘lgan fikr-mulohazalar bilan o‘rtoqlashish imkonini beradi.

1. Oilasi boshiga tushgan baxtsizliklarda adibning faqat o‘zini aybdor sanashini to‘g‘ri deb hisoblaysizmi?

2. Bayram arafasidagi “Qutlov” maktubida “... Kechardim ertangi qolgan umrimdan, Kechardim jonimdan, bo‘lib minnatdor” satrlari ma‘nosini izohlang.

3. Shoirning “Ajabmas, bir kun kelib Baxt qo‘nsa peshonamga” misralarini qanday tuyg‘ular mahsuli deb bildingiz?

4. Xatlardan biridagi “Cho‘g‘ni qog‘ozga o‘rab bo‘ladimi?” jumlasining ma‘nosini izohlang.

5. Ayol kishiga yolvorishni ojizlik va tubanlik deb bilishidan ijodkor tabiatidagi qaysi jihatlarni ilg‘adingiz?

6. O‘lis o‘lka iqlimi, odamlari kayfiyati ham yozuvchi nazaridan chetda qolmaganligi nimadan dalolat beradi?

7. Nima sababdan Toshkent shahrida o‘rnatilgan monumentda adib bilan umr yo‘ldoshi yonma-yon ishlangan?

Demak, mustaqil va sogʻlom tafakkurli, oʻz maslagida sobit shaxs tarbiyasida epistolyar janr namunalarini oʻrganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tahlil muammosini belgilash va oʻquvchilarni oʻrganilayotgan asarga qiziqtirish kirish mashgʻulotlarining asosiy maqsadidir.

Oʻqituvchilarga yordam tariqasida shuni aytish mumkinki, hozirgacha alohida adiblarning oʻrganishga oid bir qator qoʻllanmalar nashr etilgan. Ularning ayrim namunalarini eslatib oʻtish mumkin:

1. Joʻrayev K. Maktabda Oybekning hayoti va ijodini oʻrganish.- T.: Oʻqituvchi, 1974.
2. Ismatov S. Maktabda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini oʻrganish. T.: Oʻqituvchi, 1978.
3. Ishoqov F. Maktabda Gulxaniy adabiy merosining oʻrganilishi. – T.: Oʻqituvchi, 1983.
4. Maktabda Ogahiy ijodini oʻrganish. Mualliflar Q.Sultonova, N.Madaminova. – T.: 2003.
5. Pirnazarov M. Maktabda Uygʻunning hayoti va ijodini oʻrganish.- T.: Oʻqituvchi, 1972.
6. Mirqosimova M. Otamurotova R. Taʼlim bosqichlarida Abdulla Oripov hayoti va ijodini oʻrganish. Jizzax, 2012.
7. Toʻxliyev B. Alisher Navoiy hayoti va ijodini oʻrganish. Toshkent, 2012.
8. Toʻxliyev B. Bobur hayoti va ijodini oʻrganish. Toshkent, 2013.

Xulosa qilib aytganda, oʻquvchilar yozuvchi tarjimai holini oʻrganish orqali adib ijodiga turtki boʻlgan voqea-hodisalarni, ularning adib asarida qanday aks etgani, asarlarining yaratilish tarixi, ularning zamonlari tomonidan qanday kutib olingani va keyingi davrlar uchun qanday ahamiyatli ekanini tushunib oladilar.

II bob. Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini o‘rganishda savol-topshiriqlardan foydalanish

2.1. Adib hayoti va ijodini o‘rganishda savol-topshiriqlardan foydalanish

Adabiyot darsliklarida savol va topshiriqlarning soni ham, mazmuni ham rang-barang. Ular bir-biridan katta farq qiladi. Bu mualliflarning yondoshuvlariga, adbiy materialning xarakteriga ham bog‘liq. Bularning barchasi o‘quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarni amalga oshirishlarida yaqindan yordam beradi.

Darslik materiallari bilan tanishish asosida ularni quyidagi turkumlarga ajratish mumkin bo‘ladi:

1. O‘quv materialini qayta esga olishga undaydigan – reproduktiv xarakterdagi savollar.

2. Ayrim ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan savollar. Bunga bevosita badiiy matn ustida ishlash, o‘lkashunoslik materiallarini izlash, topish va undan foydalanish, ayrim jadvallarni tuzish, axborot va referatlar tuzishni kiritish mumkin.

3. Bilim va ko‘nikmalarni amaliyotga tatbiq etishni talab qiladigan savollar. Bular sirasiga asardagi muayyan adabiy-nazariy tushunchaning izohini ko‘rsatish, qo‘yilgan adabiy asar haqida shaxsiy nuqtai nazarini bildirish, ijodiy ishlarni amalga oshirish mansub bo‘ladi.

4. O‘quvchidan muayyan voqea - hodisalarga nisbatan emotsional munosabat bildirishni talab qiladigan savollar.

Umumiy tarzda aytiladigan bo‘lsa, o‘quvchilarimizning ijodiy imkoniyatlarini ko‘paytirishga yo‘naltiriladigan savol va topshiriqlarni ko‘paytirish zarurati bor.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-9 sinflari uchun mo‘ljallangan darsliklarda adib va yozuvchilarning hayoti va ijodi haqidagi ayrim muhim ma‘lumotlar ham beriladi. Masalan, 5-sinf darsligida Hamid Olimjon, Shukrullo, Xans Kristian Andersen, Maqsud Shayxzoda haqida ikki sahifa, Mirkarim Osim haqida bir yarim sahifa hajmida ma‘lumot beriladi. Ularda ijodkorlarning tug‘ilgan vaqti va joyi, o‘qish yillari, qiziqishlari, asosiy asarlari haqida ixcham ma‘lumotlar jamlangan.

Darslikda mustaqil o‘qish uchun ham ayrim asarlar tavsiya etilgan. «Hikmat durdonalari» ruknidagi «Do‘stlik» matni, «Vatanni sevmok iymondandir» ruknida E.Vohidovning «Yoshligim», «Tandir kiygan «Matmusa» kabi asarlari tavsiya etilgan. Afsuski, «Ertaklarning sehrli olami», «Mumtoz adabiyotga sayohat», «Bolalikning beg‘ubor olami» ruknlaridagi qismlar mustaqil o‘qishga beriladigan asarlar bilan ta‘minlanmay qolgan. Bu darslikning umumiy tuzilishidagi nuqsonlardan biridir.

Darslikdagi har bir mavzu tegishli savol va topshiriqlar bilan ta‘minlangan. Ular mavzuning xarakteri, materialning hajmi, ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalar bilan aloqador holda tuzilgan. Maqollar mavzusi uchun 10 ta, Sahdiy SHeroziy uchun 6ta, Shukrullo uchun 7ta, Andersenning «Bulbul»i uchun 15ta savol va topshiriqlar tuzilgan. Demak, savol va topshiriqlar adabiy materialning hajmi, xarakteri va undan ko‘zda tutilgan maqsad bilan bog‘liq holda tuziladi.

Ularning mazmuni ham rang-barang. Ayrim savollar asar yoki muallif haqidagi yangi ma‘lumotlarni bilishga qaratilgan (Ushbu ertakdagi Shahzodaning bog‘ida qanday gullar o‘sgan?) Ayrim savollarda boshqa o‘quv predmetlari, sanhat turlari bilan aloqadorlik nazarga olingan («Uning ertaklari asosida yaratilgan qanday multfilmlarni bilasiz?»).

O'qituvchi ularga ijodiy tarzda yondoshishi mumkin. Tajribali o'qituvchilar matn mazmunidan kelib chiqib, savol va topshiriqlarni o'zlari tuzishlari mumkin. pedagogik amaliyot jarayonida bunday vazifani amaliyotchi o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshirganligining bir necha marotaba guvohi bo'lganmiz. Bunda o'quvchilarning faollik darajasi keskin ortadi. Ularning matn mazmunini o'zlashtirishlari uchun yanada qulay sharoit yaratiladi, eng muhimi o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi jonli bir holat maydonga keladi.

Ba'zi savollar voqealarning izchilligi, mantiqiyligini («Hikoyani o'qib bo'lim-bo'limlarga ajrating va har bir bo'limga sarlavha qo'ying») kuzatishga undasa, Yana bahzilari ularni ijodiy fikrlashga dahvat etadi («Nima uchun yozuvchi ertakka sunhiy bulbul obrazini kiritgan?»). Amaliy-ijodiy faoliyatni talab etadigan («Ertak voqealari asosida rasm chizing») savollar ham darslikda anchagina.

Ayni bir tipdagi savol va topshiriqlar bir o'rinda juda muvaffaqiyatli bo'lib, boshqa bir o'rinda o'z vazifasini to'la bajarmasligi mumkin. Adibning tug'ilgan joyini aniqlashga oid savollarda bu hol ko'proq uchraydi. Masalan, kasb-hunar kollejelari uchun tuzilgan o'quv qo'llanmasida shunday savol mavjud («Rabg'uziy qaerda tug'ilgan?») Bunday savolga o'quvchi hech bir qiynalishsiz, mustaqil va ijodiy fikrlashga zarurat sezmagani holda javob bera oladi. Hatto u birgina so'z bilan «Raboti O'g'uzda» deb qo'ya qolishi ham mumkin. Vaholanki, savollarni tuzayotganda «ha», «yo'q», «shunday» deb javob berilishi mumkin bo'lganlaridan tiyilish kerakligini tajribali pedagoglarimiz ko'p tahkidlashadi.

Ayni mana shu savolni akademik litseylarning birinchi bosqichida Lutfiyning hayoti va ijodini o'rganish jarayonida berish esa boshqacha samara beradi. Hozirgacha Lutfiyni barcha manbalarda Hirotda tug'ilgan va shu yerda vafot etgan degan ma'lumotlari ehtirol etilib kelar edi. Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning «Funun al-balog'a» kitobida Lutfiyga «Shoshiy» nisbasi berilgan ekan. prof. A.Hayitmetov shu ma'lumotga tayanib turib, Lutfiyni Toshkentda tug'ilgan deb ko'rsatadi. O'quvchilardan shu holatga oid javoblar olinadigan bo'lsa, ularning faqat bilimlari oshibgina qolmasdan, ayni chog'da vatanparvarlik tuyg'ulariga ham ijodiy ta'sir o'tishiga shubha bo'lmaydi.

Topshiriqlarda ifodali o‘qish, rollarga bo‘lib o‘qish, matni yod olish, matn mazmunini hikoya qilish, matn mazmunini qisqartirib hikoya qilish singari ko‘rinishlar mavjud. Ular o‘quvchilarning og‘zaki nutq malaklarning ortishiga omil bo‘ladi. Bevosita yozma nutq takomiliga yo‘naltirilgan topshiriqlar ham bor.

5-sinf darsligida adabiy-nazariy tushunchalar elementar tarzda taqdim etilgan. Adabiyot, maqollar, ertaklar haqidagi ma’lumotlar shu siraga kiradi. Ayrim holatlarda muayyan adabiy janr haqidagi muxtasar ma’lumotlar berilgan. «Shiroq» afsonasi haqida shunday ma’lumot mavjud. Ayni paytda afsonalar, ruboiylar, hikoya, qasida haqida ham alohida nazariy ma’lumot berilgan. Kitobda xarakter haqidagi nazariy ma’lumot ham bor.

5-sinf uchun Adabiyot darslari yangi fan hisoblanadi. Ular bu paytgacha «O‘qish kitobi» bilan shug‘ullanib kelishgan edi. 5-sinfdan boshlab ular tom ma’nodagi adabiyot darslarining ichida yashashadi. Xuddi shu jarayonni oson va mazmunli kechishi uchun ham darslik o‘ziga xos vazifalarni ado etadi.

Har bir adabiyotchi shu narsani yaxshi biladiki, katta yoshdagi ko‘pgina kitobxonlar san’atni his qilishda, san’at bilan munosabatlarda bolalikdagi darajalarida qolishadi, ularni faqat «kim?» va «qanday » degan savollar bezovta qiladi xolos, bu savollar o‘smirning kitobxonligini belgilaydi – bu 10-13 yoshdagi o‘quvchining ma’naviy kamoloti uchun xosdir.

Adabiyotni uning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda o‘rganishning boshlanishi yetuk kitobxonni shakllantirish uchun muayyan zamin yaratish imkonini beradi. Hammadan burun bu bolalikning undagi «nima?» va «nima uchun» degan savollariga javob berish uchun tayyorgarlikdir. Faqat bilim zahiralari, tuyg‘ular madaniyati, kitobxonlik ko‘nikmalari bilan boyigan, kitobxongina katta yoshdagi insonlarning yetuk baho va mulohazalariga tengmateng yaqinlashgan holda hayotiy muhim muammolarni yechishga qobildirlar.

Adabiyot darslari mutaxassis shakllantirish uchun emas, shaxs ma’naviyatini tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Shu bois adabiy ta’lim jarayonida sof adabiyotshunoslikdan bilim berish emas, balki, inson ko‘nglini tarbiyalash ustuvor ahamiyat kasb etmog‘i maqsadga muvofiqdir.

Adabiyot insonga badiiy ta'sviriy vositalar bilan qanday yashash kerakligi haqida o'rgatadi. Adabiyotga muhabbatni inson qalbida yoshlikdan shakllantirishi kerak.

Bu borada umumta'lim maktablari muhim o'rin tutadi. Darsliklarda berilayotgan yozuvchi tarjimayi holi, tanlangan badiiy asar va ular asosida o'quvchini bilimini, tafakkurini shakllantirish uchun xizmat qiladigan savol va topshiriqlar adabiyot darsliklarining asosini tashkil etadi. Bugun biz asar mazmun mohiyatini tushinishga, o'quvchini mustaqil fikrlashga xizmat qiladigan savol va topshiriqlarga qisqacha to'xtalmoqchimiz.

Mustaqillikning ilk yillarida yaratilgan darsliklarning ayrimlarida mavzular, o'rganishga tavsiya etilgan matnlardan so'ngs avol va topshiriqlar berilmagan edi. Bizningcha, bunga sabab yangi talablar asosidagi darsliklarning tezlik bilan yaratilganligi hamda matnlar bo'yicha savol va topshiriqlarni har bir o'qituvchi o'zining tushunchasi, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib mustaqil tuzishni nazarda tutishgan bo'lsa kerak. Shunda har bir mavzudan, matndan keyin uning mohiyatini ochishga qaratilgan, asar badiiyatini anglashga yo'naltiruvchi, qahramonlarning ruhiy olami tadqiqiga yo'l ochuvchi savol va topshiriqlar berilishi zarurligi oydinlashdi. Jo'yali va aniq maqsadni ko'zlagan savol, topshiriqlar adabiyot darslarining samaradorligini ta'minlasa, faktlarnigina qayd etishni talab etuvchi so'rovlar mashg'ulotlar saviyasining past bo'lishiga olib keladi. Amaliyotda savol va topshiriqlar mohiyatiga ko'ra a) faktologik; b) konseptual kabi ikki turga ajratiladi.

Faktologik savollar asosan darslikda mavjud bo'lgan yoki o'qituvchi so'zlab bergan faktlarni qayta so'zlab berishni ko'zlaydi. Bunday savollar ustuvor bo'lgan darslarda o'quvchi fikrlamaydi, matn ustida izlanmaydi. Chunki ularniig javoblari darslikning o'zida berilgan, faqat birrov o'qib topib olinsa bas. Ko'pincha amaliyotda o'quvchilar darslikdagi savollarga javob topish uyga vazifa qilib berilganda, darslik sahifalariniig chetiga javoblari bayon etilgan o'rinlarga shu savol raqamlarini qo'yib chiqishadi. Eng achinarlisi, ba'zan uyga vazifani shu tarzda bajarishni o'qituvchsilarining o'zlari ko'rsatib beradilar. Bir qarashda bu

hamma uchun qulay, bunda bola qiynalmaydi, ortiqcha zo‘riqmaydi, bir zumda darsni tayyorlab qo‘yadi. Ammo bu holat adabiy ta‘lim uchun qimmatga tushmoqda. Oqibatda badiiy so‘zni his qilishdan mahrum, badiiy asar tahillash ko‘nikma va malakasi shakllanmagan, mutolaadan zavq tuymaydigan bitiruvchilarga ega bo‘linmoqda.

Konseptual savol va topshiriqlar o‘quvchini o‘ylashga, mustaqilf ikrlashga, izlanishga chorlaydi, asar badiiyati, uning mazmuniga mustaqil nazar tashlash, o‘ziga xosliklarini, farqli tomonlarini topishga yo‘llashi jihatidan g‘oyat muhim metodik jihat sanaladi. Kitobdan ularga mashaqqatsiz tayyor javoblar topilmaydi, har bir savolga tayyorlanish, matnni sinchkovlik bilan o‘qish, persanajlarning ruhiy kechinmalarini ko‘nglidan o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. Javob topish yo‘lidagi aqliy, ruhiy zo‘rqishlar avvaliga qiyin tugalsada, keyinchalik izlabt opilgan haqiqatlar, kashf etilgan go‘zalliklar o‘quvchilar uchun shirin “azob”, estetik lazzat manbaiga aylanadi. Tasavvur uchun 8-sinf (Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov) lar tomonidan tuzilgan darslikda Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodiva “MirzoUlug‘bek ”tragedyasidan parcha berilgan. Yakunida adib hayoti va ijodi, “MirzoUlug‘bek” tragedyasiga oid umumiy 18 ta savol va topshiriqlar berilgan. Savollarning 7-, 11-, 12-, 13-, 17-lari asosan faktologik ruhda berilgan. **Shularning o‘rniga va ularga qo‘shimcha qilib quyidagi savollar berilsa, o‘quvchini asar mohiyatini yanada chuqurroq tushinishiga xizmat qilar edi:**

1. Amir Temur qabri yonida Ulug‘bek Mirzo *“Sulton o‘lsahamki, donishmand yashar, Olimlarga mangu hayot tarixi -bashar...”* jumlasini izohlang.

2. Asarda Mirzo Ulug‘bekning shaxsiyatida dinlararo bag‘rikenglik xislatlari qaysi o‘rinlarda ko‘zga tashlanadi?

3. Piri Zindoniy *“Istasangiz tiz cho‘kayin oyog‘ingizga, sizga buyuk qalbli inson, ulug‘ munajjim! Ammo sulton Ulug‘bekka, Sohibitojga bosh egmayman”*- deyish sabablarini tahlil qiling.

4. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida davr voqealarini yoritishga xizmat qiladigan epizodik obrazlar (Piri Zindoniy, Amir Temur arvohi, elchilar) haqida mulohaza yuring.

5. Ali Qushchini Ulug‘bek uchun bunchalar suyuqli va ishonchli inson ekanligi sabablarini izohlashga urinib ko‘ring ?

6. Misr elchisi “Turkistonning, Xurosonning donishmandlari yozgan nodir asarlari jahonda ma‘ruf”-degan so‘zlarini siz qanday tushundiz,ularning ma‘naviy qudrati haqida bilganlaringzni so‘zlab bering?

7. Piri Zindoniy ta‘nalariga Ulug‘bekning “Birinchi gal orif bo‘lsa sultonlar o‘zi, G‘aflet ketib ochiladi ulusning ko‘zi” jumlasida shohlikning asosiy tayanchi haqida o‘z fikringizni ayting.

8. 7-sinf tarix darsligida olgan bilimlariz va asardagi Mirzo Ulug‘bek shaxsi yoritilishidagi o‘xshashlik va farqli xususiyatlarni toping?

9. Yozuvchining asar qahramonlariga xolisona yondashishiga e‘tibor bering ?

Suhbat savollari yuqori sinflarda bir muncha murakkabroq shaklda tuziladi. O‘quvchilar diqqati badiiy adabiyotni muhim muammolarini tushinishga, yozuvchining mahorati va uslubini o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi kerak. O‘quvchilarga suhbat vaqtida beriladigan savollar so‘roq, buyruq, buyruq-iltimos, tasdiqlash shaklida tuziladi.

So‘roq shaklidagi savollar:

Siz o‘tmish hayotini aks ettirgan qanday asarlarni o‘rgangansiz ? Maqsud Shayxzodaning qaysi asarlari sizga yoqadi va nima uchun? Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida Ulug‘bek obrazi sizda qanday taassurot qoldirdi.

Demak, o‘qituvchi uchun ham, ta‘lim sub‘ektiga aylanib borayotgan o‘quvchi uchun topshiriq, ijodiy, muammoli savol asar ustida mustaqil, maqsad sari izlanish yo‘lidagi faoliyat tavsifini belgilaydigan ochqich bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchining ta‘lim jarayonini boshqarishi maqsad sari eltadigan to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib turishda namoyon bo‘ladi, o‘quvchilar faoliyatini tartibli, izchil, yangi pedagogik texnologiya darajasida uyushtirishni ko‘zda tutadi. Bunda har bir adabiy materialni o‘qib o‘rganish natijasi ham e‘tiborga olinadi.

2.2. Adib hayoti va ijodini o'rganishda axborot texnologiyalardan foydalanish usullari.

Bizning asrimiz fan va texnika taraqqiyoti yutuqlari juda ko'p bo'lishni dastlabki o'sish-o'zgarishlardayoq namoyon qildi. Bugungi taraqqiyotdan fanlarni o'qitishda ham siljishlar bo'layotganini sezish mumkin. Shuningdek, adabiyot o'qitish ishida, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida ham yangiliklarni ilg'ashimiz, ularni o'z ishlarimizda ko'rsata olishimiz kerak.

Zamonaviy adabiyot darslarida o'qituvchi o'z talabalarining mavzuni yaxshi o'zlashtirishlari uchun yangi-yangi uslublardan, texnika vositalariyu ko'rgazmali qurollarning eng zamonaviy ko'rinishlaridan foydalanadi. O'quvchilarning tafakkur doiralarini kengaytirish, xotiralarini mustahkamlash, yangi bilimni zamonaviy usullar bilan tez o'zlashtirishlari uchun barcha o'zida bor bo'lgan faoliyat qirralarini ishga soladi.

O'qituvchi pedagogik amaliyotchi, ilmiy tadqiqotchi, ijtimoiy tashkilotchi, badiiy vositachi, badiiy ijrochi, badiiy ijodkorlik sifatlariga ega bo'lsagina haqiqiy adabiyot darsini bera oladi. Bu faoliyat qirralari har biri matematika, fizika yoki biologiya o'qituvchisi uchun shart emas. Ammo adabiyot muaalimi esa o'quvchilarning ko'ngli bilan, his-tuyg'ulari bilan ish ko'radi. O'qituvchisida insoniy xulq-atvorni shakllantirishga ko'maklashadi. Shuning uchun ham uning o'zi eng oliy shaxsiy sifatlar egasi bo'lmog'i, o'quvchisining komil inson bo'lib yetishmog'i uchun badiiy asarlar va o'z iqtidori va xulqini birgalikda ishga solmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganiday, "O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak".¹

¹ I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqidan, 1997 yil 29 avgust. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent "SHarq", 1997 yil, 5-bet.

Bunday darajaga ko'tarilish uchun o'qituvchi nihoyatda katta mehnat qilishi kerak, shundagina u o'qitishni hayot va zamon nafasi bilan uyg'unlashtiradi, adabiyotning ta'sir kuchini-tarbiyaviy imkoniyatini ishga sola biladi, shu asosda o'qituvchilarning o'zini anglashiga rag'bat uyg'ota oladi.

Sir emaski, hozirgacha maktablarimizda bilimlarni tayyor qoliplarga solib berish o'quvchini faqat iste'molchi o'rnida qabul qilish an'anaga aylanib qolgan edi. Shunga ko'ra ham " Milliy dasturda shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi"¹, deb belgilangan.

Demak, metodika fani oldidagi eng muhim vazifalardan biri, o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish, ularning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishning samarali usullarini kashf etish va amaliyotga joriy qilishdan iborat.

Adabiy ta'lim samaradorligini oshirish, eng avvalo, o'qituvchining pedagogik mahorati hamda uning ta'lim jarayoniga nisbatan yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda adabiyot o'qituvchilarining pedagogik mahorati darajasi har bir dars hamda o'rganilayotgan mavzu o'quvchilarga yetkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy, texnologik yondashuvni taqozo etmoqda. Texnologik yondashuv negizida namoyon bo'luvchi holatlarning asosiysi – bu dars jarayonining muayyan loyiha asosida tashkil etilishi sanaladi.

Ta'limning jarayonini texnologik yondashuvga muvofiq tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega bo'lib, fan o'qituvchilarining ichki imkoniyatlari, shuningdek, ularning tashqi omillardan qay darajada foydalan olishlariga bog'liqdir. SHunday bo'lsada, biz bu o'rinda Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanini o'quvchilar tomonidan chuqur o'rganilishiga imkon beruvchi dars namunasi (loyihasi)ni keltirmoqchimiz.

Darsning maqsadi: Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani va unda ilagri surilgan g'oyalar muhitining o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishiga erishish.

Xususiy maqsadlar:

- 1) o'quvchilarga «Kecha va kunduz» romani, uning yaratilishi haqida nazariy ma'lumot berish;
- 2) o'quvchilar tomonidan yurt ozodligi, inson erki va ularga erishish hayotiy ehtiyoj, ma'naviy zaruriyat ekanligini anglab yetishishiga erishish.

Dars jarayonida hal etilishi zarur bo'lgan vazifalar:

- 1) O'quvchilarga Cho'lpon hayoti va ijodi, shuningdek, "Kecha va kunduz" asari borasidagi nazariy ma'lumotlarni berish.
- 2) O'quvchilarning asar mazmuni bilan to'la tanishishlariga erishish.
- 3) O'quvchilar tomonidan asar g'oyaviy yo'nalishi va yechimi mohiyatining chuqur tushunib yetishini ta'minlash.
- 4) O'quvchilardan asar qahramonlari(Zebi, Akbarali, Razzoq So'fi, eshon timsollari)ga nisbatan munosabatini shakllantirish.
- 5) O'quvchilarda asarda ifoda etilgan hayotiy voqelik negizida o'z aksini topgan ijtimoiy hodisa, uni keltirib chiqaruvchi sabablar, unga barham berish yo'llari, shuningdek, yakuniy xulosa borasidagi qarashlarini qaror toptirish.

Darsning shakli: aralash dars.

Darsda qo'llaniluvchi metodlar: kichik guruhlarda ishlash ("6x6x6" usuli), savol-javob, "Klaster", "Qarorlar shajarasi" ("Qarorlar qabul qilish texnologiyasi"), debat, qiyosiy tahlil (fan o'qituvchilari dars jarayonida qo'llaniluvchi interfaol usullar to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor etilganlar.

Dars jihozlari: akademik litseylarning uchinchi bosqichi "Adabiyot" majmuasi, Cho'lponning portreti, "Kecha va kunduz" romani, romandan olingan parchalar o'z aksini topgan matnlar (ish qog'oziga chop etilgan matnlar), o'zbek adabiyotshunoslari (O. Sharafiddinov, N. Karimov va boshqalar)ning adib ijodi bo'yicha bildirilgan fikrlari bayon etilgan lavhalar, Zebi monologi yozilgan audiokasseta (agar audiokasseta (magnitofon) mavjud bo'lmasa, ushbu monolog o'quvchilarning biri tomonidan bayon etilishi mumkin), jadval, tasvir va boshqalar.


Darsning borishi:

I. Cho‘lpon hayoti va ijodi bo‘yicha o‘quvchilarga nazariy ma‘lumotlar berish. Ushbu jarayonning o‘quvchilardan biri yoki bir nechta o‘quvchi tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning bu boradagi harakatlari adibning portretini tengdoshlari e‘tiboriga havola etish, shuningdek, Cho‘lpon tomonidan yaratilgan asarlarni qayd etuvchi jadval yordamida olib boriladi.

II. **Kichik guruhlarda ishlash** (“6x6x6” usuli). O‘quvchilarning umumiy soni e‘tiborga olingan holda ular 5 yoki 6 nafardan bir necha guruhlariga bo‘linadi. Har bir guruhga «Kecha va kunduz» asaridan olingan parcha yozilgan matn bilan ishlaydilar. So‘ngra guruhlar qayta shakllantiriladi. Bu jarayonda yangi guruhlarda avvalgi guruhlarining 1 nafar a‘zosi bo‘lishiga e‘tibor beriladi. Yangi guruhning har bir a‘zosi guruhning boshqa ishtirokchilariga o‘zi o‘rgangan matn mazmunini qisqacha hikoya qilib beradi. Shu tarzda o‘quvchilar 6 yoki 7 ta parchaning mohiyati bilan 3 yoki 5 daqiqa ichida tanishib chiqadilar.

III. **Klaster metodi** (“klaster” so‘zi g‘uncha, bog‘lam ma‘nosini anglatadi; metodni qo‘llashda ma‘lum mavzuning umumiy mazmunini ochib beruvchi asosiy so‘zlardan iborat bog‘lamlar hosil qilinadi) asosida ishlash. Dastlab sinf o‘quvchilari teng miqdor asosida uchta yoki to‘rtta guruhga bo‘linadilar. Barcha guruhlariga bir xil topshiriq beriladi. Har bir guruh a‘zolari kichik hajmli vatmanda yoki sinf yozuv taxtasida asar mohiyatini yorituvchi tasvini yarata olishlari lozim. Klasterni ifoda etishda yodga tushgan barcha «kalit» so‘zlar doira ichida ifoda etiladi, so‘ngra ular o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikka asosan doiralar birlashtiriladi. Guruhlar tomonidan topshiriq bajarib bo‘lingach, sinf ishtirokida har bir tasvirning qay darajada mantiqiy g‘oyaga ega ekanligi muhokama etiladi. Eng yaxshi klasterni yarata olgan guruh g‘olib deb topiladi. Bu tasvir quyidagi rasmda keltirilgan ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

1-rasm



IV. **“Qarorlar shajarasi”** (“Qarorlar qabul qilish texnologiyasi”) usuli asosida ishlash. O‘quvchilar guruhlariga bo‘linadilar. Har bir guruh asarning badiiy, ijtimoiy va ma’naviy qimmatini aniq dalillar asosida ochib beradilar. Bu borada quyidagi jadvalni yaratish mumkin. (jadval o‘quvchi tomonidan to‘ldiriladi. 2-rasm).

2-rasm

“Kecha va kunduz” romani			
№	Badiiy qimmati	Ijtimoiy qimmati	Ma’naviy qimmati
1.			
2.			
3.			
va h.			

V. **Debat tashkil etish.** O‘quvchilar o‘rtasida asardan olingan taassurotlari bo‘yicha bahs uyushtiriladi. Ularning e’tiboriga quyidagi savollar havola etiladi:

1. Sizning fikringizcha, agar Akbarali vafot etmaganda asar syujeti qanday kechar edi?

2. Siz qandya fikrdasiz, Zebini bunday qismatdan qutqarish mumkinmidi?

IV. **Savol-javob asosida o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash.**

1. Cho‘lponning hayoti va ijodi haqida qanday ma’lumotlarga ega bo‘ldingiz?
2. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani qanday asar?
3. Asarning bosh g‘oyaviy yo‘nalishi nimadang iborat?
4. Zebi (Akbarali, Razzoq so‘fi, Eshon, Miryoqub) obrazi mohiyatini ochib bering.
5. Siz yozuvchining mahoratini qanday baholaysiz?
6. Insonparvarlik g‘oyaviy yo‘nalishini asarning qaysi o‘inlarida ko‘rish mumkin?

7. Asarning yechimi nimadan iborat?
8. Asarning milliy istiqlolni ta'minlashdagi ahamiyati qanday?

Darsni tashkil etishda asosiy e'tibor o'quvchilarning mustaqil faoliyat yuritishlariga qaratiladi. O'qituvchining dars jarayonidagi o'rni o'quvchilar faoliyatini yo'naltirish, maslahat berish, fikrlarini umumlashtirish va yakuniy xulosani bayon etishdan iborat bo'lishi lozim.

Ma'lumki, so'nggi paytlarda boshqa sohalar kabi ta'lim tizimida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash keng ommalashmoqda. "Veb kamera" – o'quvchilarni badiiy asarlar mutolaasiga qiziqish uyg'otishning ta'sirchan vositalaridan bo'lib, taniqli ijodkorlar bilan masofadan turib video muloqot o'rnatish usulidir. Uning qulayligi va afzalligi shundaki, bunda o'quvchilar o'zlari sevgan shoir yoki yozuvchilar bilan Internet tarmog'ida jonli muloqot o'rnatishga muvaffaq bo'ladilar. Buning uchun Skype, Mail.ru Agent, Google Talk, kabi maxsus dasturlar bo'lishi talab etiladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarga mazkur usulni tatbiq etish kompyuter, multimediya vositalari bilan bir qatorda internetga tezkor ulanish qurilmasi USB modem va veb kamera kabi qo'shimcha uskunalardan ham foydalanish zaruriyatini taqozo etadi.

Taniqli adiblar bilan noan'anaviy shaklda uchrashuvlar tashkil etish uchun foydalanuvchilar global tarmoqqa ulangan hamda ularning kompyuterida veb-kamera qurilmasi o'rnatilgan bo'lishi shart. Muloqot chog'ida tomonlar ekranda bir-birlarining harakatli tasvirlarini ko'rib, ovozlari eshitish imkoniga ega bo'ladilar. Videoaloqa kompyuter vositasiga ulangan "Veb kamera" deb ataluvchi maxsus qurilma yordamida amalga oshiriladi.

Video muloqot o'tkazilishi rejalashtirilgan xonaga ikkita kompyuter o'rnatish zarur bo'lib, ulardan biri USB oraqali Internetga ulanish, ikkinchisi esa multimediya vositalaridan foydalanish uchun tayyorlab qo'yiladi. Yuqori qismida veb kamera uskunasi mavjud monitor o'quvchilar ko'rib turishi uchun qulay joyga qo'yiladi.

Uchrashuv kuni, vaqti ijodkor bilan o'qituvchining ma'lum shaklda (elektron pochta, uyali telefon aloqasi yoki individual tarzda)gi suhbatidan so'ng aniqlanadi va ma'lum tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

Bunday ta'lim vositalari asosida tashkil qilingan darslar o'quvchilarning faolligini yanada oshiradi.

2.3. Adib hayoti va ijodini o'rganishda sayohat darslaridan foydalanish.

Yoshlarga ta'lim berishdan asosiy maqsad barkamol avlod ongiga fan asoslarini puxta singdirish orqali ularni diyonatli, e'tiqodli qilib o'stirish, ijtimoiy hayotdagi har bir hodisaga ongli yondashish, egallagan bilim va ko'nikmalarini hayotga tadbiq etish qobiliyatini tarkib topdirib, rivojlantirishdan iborat.

Bu jihatdan ayniqsa adabiyot darsi yosh avlodni jamiyatimiz olg'a surayotgan yuksak g'oyalar ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

Bundan tashqari nazariya bilan amaliyotni birgalikda, chambarchas bog'lab, ya'ni o'tilayotgan mavzuni unga doir material, dars jihozi, shoir yashagan davr muhitini his qilishi uchun "Sayohat darsi" usulidan ham foydalanishi mumkin. Yozuvchi (shoir) hayoti va ijodini o'rganishda adabiyot va san'at muzeylari, adib qadamjolari hamda adib uy-muзейlariga sayohatlar uyushtirish, tug'ilgan kuni munosabati bilan yozuvchi- shoir(shoira)lar bilan uchrashuvlar tashkil qilish yaxshi natija beradi. Muzeyda o'tilgan dars: sinfda o'tilgan darslarni to'ldiruvchi, o'quvchi- talabalar tasavvurini boyituvchi, mazmundor darslardan biri hisoblanadi. Bunday darslar talabalar xotirasida uzoq saqlanib qoladi. Muzeydagi yozuvchi hayoti va ijodiga taalluqli bo'lgan eksponatlar haqidagi ma'ruza muzey boshqaruvchisi yordamida talabalarga yetkaziladi. O'qituvchining o'zi ham reproduktiv usulda talabalarga gapirib o'tish lozim. Demak, o'qituvchining o'zi ham muzey va uy- muзей eksponatlari bilan oldindan tanishish, yozuvchi

(shoir)hayoti va ijodiga taalluqli ma'lumotlarni o'rgangan bo'lishi, lozim bo'lsa, adibning oilasi, shogirdlari bilan uchrashuvlar tashkil qilishi kerak. Muzey eksponatlari bilan talabalar tanishish jarayonida quyi sinfda o'tilgan mavzular takrorlanadi, mustahkamlanadi. Jumladan, o'quvchilar yozuvchining bolalik davri, uning oilasi, qarindoshlari, shogirdlari, do'stlari, uning sevimli mashg'ulotlaridan xabardor bo'ladi. Yozuvchi ijodiga o'z hissasini qo'shgan qardosh adiblar haqida va uning qardosh xalqlar adabiyotiga qo'shgan hissasi haqida bahs yuritiladi.

Akademik litseylarning 3-bosqichida G'.G'ulom hayoti va ijodini o'rganishga 2 soat ajratilgan. Bu ikki soat davomida shoirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. G'.G'ulom she'riyatidagi shaxs va jamiyat, inson va olam munosabatlaridagi nozik qirralarning aks ettirilishi. "Turksib yo'llarida", "Sen yetim emassan", "Sog'inch", "Vaqt", "Alisher" kabi she'rlarining yaratilish tarixi va badiiy tahlili. Uning nasrdagi hajviy pafos hamda haqqoniy ruhning yetakchilik qilishi. Uning hakoyalaridagi kulgi qo'zg'atuvchi vaziyat va holatlar, ularning mohirona bayon etishdagi vosita va usullar tahlil qilinadi"¹³.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar ta'limni ma'lum bir oliy ta'lim muassasasida davom ettirishni reja qilgan bo'lib, o'qituvchidan dars o'tishning yangi va samarali usullarini izlashni talab qiladi. Bunda darslik va o'quv qo'llanmalardagi ma'lumotlardan tashqari, turli xildagi amaliy mashg'ulotlar tashkil yetish yaxshi natija beradi. SHulardan biri muzeylarga borib o'tkazilgan sayohat darsidir.

Masalan: G'afur G'ulom mavzusi yuzasidan "G'afur G'ulom uy muzeyi" ga sayohat darsi quyidagicha amalga oshiriladi.

O'quvchi-talabalar adibning uy-muzeyiga borishdan oldin, ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan puxta tanishadi. Matbuot va ommaviy axborot vositalaridan ma'lumotlar to'plashadi. Adibning tug'ilib- voyaga yetgan Toshkent shahrining geografik xaritasi chiziladi. Toshkent oqshomi (2005 yil 2 may soni) gazetasida Oybek va G'afur G'ulom fotosurati kattalashtirilib portret sifatida taqdim etiladi. Adib zamondoshlarining G'afur G'ulom nomiga aytilgan fikrlari, G'afur

¹³ Akademik litseylar uchun o'quv dasturi. –T.: 30-bet.

Gʻulomning oʻz farzandlariga, zamondoshlariga, shogirdlariga bildirgan fikrlari katta qogʻoz plakatlarda namoyish etiladi. Oʻqituvchi tomonidan adib tugʻilib-oʻsgan diyor haqida qisqacha maʼlumot beriladi. Adib nomini abadiylashtirish uchun hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qaror oʻqiladi va uning nomini abadiylashtirish uchun qaerlarga qoʻyilganligi haqida soʻz yuritiladi.

Darsni adib uy-muzeyida tashkil qilish uchun oʻqituvchi tomonidan quyidagicha tayyorgarlik koʻriladi:

-oʻquvchi-talabalarga uy-muzeyning ichki qoidalarga rioya qilishlari haqida tushuncha beriladi;

- dars davomida muzey boshqaruvchisining gaplarini yozib olish uchun (qalam, ruchka, oʻchirgʻich daftar, chizgʻich) kerakli oʻquv anjomlarini tayyorlash taʼkidlanadi;

- darsni oʻquv maskanlariga joriy qilish uchun muzeydagi faoliyat yozib borish uyushtiriladi;

- oʻquv maskanlari va til va adabiyot xonalarini boyitish uchun devoriy gazeta, algʻbom, bukletlarga nusxa koʻchirishda fotoapparatdan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalar adib hayoti va ijodi bilan tanishganlik, tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun oʻqituvchi tomonidan beriladigan savollar.

Savollar quyidagicha:

1. Gʻafur Gʻulom uy-muzeyi qaerda joylashgan?
2. Adib uyi nima uchun muzeyga aylantirilgan?
3. Akadimik shoir Gʻafur Gʻulom uy-muzeyining tashkilotchisi kim?
4. Gʻafur Gʻulomning qaysi asari yetti tilga tarjima qilingan?
5. Uy-muzeyda uy-roʻzgʻor buyumlaridan tashqari cholgʻu asboblari ham mavjud. Adib oʻz sheʼrlariga musiqa bastalaganmi?
6. Gʻafur Gʻulomning 100 yilligiga bagʻishlab barpo etilgan madaniyat va istirohat bogʻidagi adib haykalining muallifi kim? (Ravshan Mirtojiev, Valeriy Akopjanyan)
7. Adib nomini abadiylashtirish uchun uning nomi yana qaerlarga qoʻyilgan?

8. G‘afur G‘ulomning qaysi asari sizga yoqadi?
9. Adibning qaysi asarini oynai jahonda tomosha qilgansiz?

Reja asosida uy-muzeyi direktori, adibning qizi Olmos Ahmedova talabalar bilan muzey hovlisida uchrashadi.

Toshkent shahrining Beshyog‘och maydoni Arpapoya mahallasidagi 1-uy G‘afur G‘ulomning hovlisidir. Bir paytlar shoir istiqomat qilgan bu hovli keyinchalik muzeyga aylantirilgan. Uy-muzey ikki qavatdan iborat bo‘lib, oynavand eshik orqali muzeyga kiriladi. Muzey ichi katta va shinam bo‘lib, u yerda shoirning hayotiga, ijodiga aloqador barcha manbalar saqlanmoqda. Hovli o‘rtasida juda katta bo‘lmagan bog‘ barpo qilingan. Bog‘ning chekka tomonida esa G‘afur G‘ulomning haykali qad rostlagan.



Muzeyga kirar ekansiz, G‘afur G‘ulom xarakteriga xos bo‘lgan ko‘tarinkilik, yumorga boylik, xushchaqchaqlik sizga sherik bo‘ladi. Muzey xodimasi muzey bilan o‘quvchilarni tanishtiradi:

Bu hovli butun dunyo shoirlari to‘planadigan manzil bo‘lgan. G‘afur G‘ulom o‘zbek xalqining yirik shoiri va mashhur yozuvchisi ekanligi, bu muzey 1983 yilda tashkil topgan bo‘lib, 2004 yil shoirning yuz yilligi arafasida

Prezidentimiz farmoni bilan qayta tiklanganligi haqidagi ilk ma'lumotlar bilan boshlanishi mumkin. G'afur G'ulom sira ham odamsiz tura olmas edi. Hamma vaqt uyi to'la odam bo'lgan. Shoir 1903 yil 10 mayda tug'ilganligi, shoir yashagan uy va uning eski shaharda joylashganligini suratlar orqali berilgan. SHoir dastlab 1912 yilda otasidan ayrildi va katta farzand bo'lganligi tufayli oilaning kun kechirishi, tashvishlari uning zimmasiga tushdi. Uning 3 ta singlisi bo'lgan. Shoirning "Sen yetim emassan" she'ri ana shu qiyinchilik, yetimlik va muhtojlik kunlarini eslab yozilgan bo'lsa kerak.

Yetimlik nimadir–

Bizlardan so'ra.

O'ninchi yillarning

Sargardorligi;

Isitma aralash

Qo'rqinch tush kabi,

Xayol ko'zgusidan

O'chmaydi sira.

Men yetim o'tganman,

Oh, u yetimlik...

Voy bechora jonim,

Desam arziydi.

Boshimni silishga

Bir mehribon qo'l,

Bir og'iz shirin so'z

Nondek arzanda...

Mana shu satrlarda shoirning dardli istiroblari qog'ozga tushirilgan. Bundan tashqari G'afur G'ulomning "Vaqt", "Sog'inch", "Kuzatish" she'rlari, "Suv va nur" nomli balladasi mashhur bo'lib, ularning ilk namunalari, birinchi nusxalari shu muzeyda saqlanmoqda. U ishchi dehqonlarga atab "Ko'kan" dostonini 1939 yil "Shum bola" qissasini yozdi. Bu qissa bugungi kunda rus, qozoq, tojik tillariga tarjima qilingan. O'z davrida shoir M.Shayxzoda, H.Olimjon,

Zulfiya, shogirdi S.Ahmad bilan birgalikda ijod qilgan. Uning eng sevimli shogirdlaridan biri Said Ahmad. Shoir uni “ijod parisi” deb atagan. Sevimli yozuvchimiz Said Ahmad ustoz G‘afur G‘ulom haqida eslab, bu xonadonda domlaning mashhur asarlarining dunyoga kelishini, aziz o‘g‘lidan judo bo‘lib yig‘lanagini, qiz uzatib, o‘g‘il uylagan daqiqalarini, qizalog‘ining sochiga lenta taqqanidan tortib bolalarini, nevaralarini opichlab yurganini ko‘rganman–deb yozadi. G‘afur G‘ulom A.Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini nasriy bayon qildi. Bundan tashqari Shekspirning “Otello”, “Qirol Lir” tragediyalarini ilk bor o‘zbek tiligiga tarjima qilgan. G‘afur G‘ulom xalq hayoti bilan bevosita tanish bo‘lganligi sababli xalq uni uch marotaba deputatlikka saylagan. Shoirning 6 ta farzandi 3 o‘g‘il va 3 qizi bo‘lgan. Ularning ismlari Xolida, Olmos, Toshxon o‘g‘illarining ismi Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Abduqodir, Mirzo Xondamir. G‘ofur G‘ulomning ijodini uning farzandlaridan Olmos G‘ufurova davom ettirdi. U 2000-yilda “Buyuk xizmatlari” orderi bilan taqdirlandi. Birinchi prezidentimiz I.Karimov “G‘ofur G‘ulomning ijodi faqat O‘zbekistonda emas avvalambor har tamonlama butun dunyoga mashhur” degan edi.

Talabalar G‘afur G‘ulom haqida to‘plagan materiallar asosida o‘zlarini qiziqtirgan savollar berib, javob eshitishga muvaffaq bo‘ldilar.

O‘quvchilar tomonidan berilgan savollar:

1. G‘afur G‘ulomning yoshlik chog‘lari Qo‘rg‘ontepa mahallasida o‘tgan ekan. Hozirgi paytda bu uyning ahvoli haqida gapirib bering.
2. Olmos opa, oilada nechta farzand bo‘lgansizlar, ular haqida qisqacha ma’lumot bering.
3. G‘afur G‘ulom shoir bo‘libgina qolmasdan yetimparvar inson sifatida elga tanilgan. Adib bolalar uyida ishlashi bilan bir qatorda bolalarning millatidan qat’iy nazar ayrimlarini o‘z uyida tarbiyalagan. Hozirgi kunda ularning taqdiridan xabardormisiz?
- 4.Olmos opa, otangiz tabiatiga xos bo‘lgan yumoristik hislatlari farzandlariga o‘tganmi? Iloji bo‘lsa qiziqarli voqealarni gapirib bering?

5. Adibning «Gʻulomov» taxallusi nimaga asoslanib qoʻyilgan?
6. Gʻafur Gʻulom «Men oʻzbek shoiriman», -deb qayta-qayta magʻrurlanar ekan, sababi nimada?
7. Shoir Gʻafur Gʻulomning «Said Ahmad sheʻrlaringa doyalik qilgan», «Oybek bir asrlik doʻstim» kabi iboralarini tushuntirib bering?
8. Olmos opa, shu hovlini uy-muzeyi qilish otangizning orzusi edimi yoki Siz oʻzingiz shu fikrga kelganmisiz?
9. Hozirgi paytda ham Gʻafur Gʻulomning uy-muzeyiga chet el yozuvchi va (shoir)lari kelib ziyorat qilib turishadimi?
10. Olmos opa - kelajakdagi orzularingiz va biz yoshlarga beradigan maslahatlaringiz.

Akademik shoir Gʻafur Gʻulom uy-muzeyidan talabalar katta va boy taassurotlar bilan qaytdilar. Oʻquvchilar ketish oldidan muzey direktori Olmos Gʻofurova bilan estalik uchun suratga tushishadi, muzey xotira daftariga oʻz taassurotlarini yozib qoldirishadi. (Bu maʼlumotlarning barchasi Gʻafur Gʻulom uy muzeyida suratlar, chizmalar, kitoblar bilan berilgan) .

Talabalarga sayohat taassurotlari yuzasidan «Men sevgan adib», «Gʻafur Gʻulom - Toshkentda», «Gʻafur Gʻulomning ijod xonasi» kabi mavzularda algʻbom, insho, referat va kecha ssenariylarini yozib kelish vazifasi topshiriladi. Demak, adib hayoti va ijodini oʻrganishda adabiyot va sanʼat muzeylari va adib uy muzeylariga tashrif buyurish kutilgan natijani beradi. Talabalar adib hayoti va ijodi bilangina tanishib qolmay, shu davrning ijtimoiy- siyosiy va madaniy hayotidan ham xabardor boʻladi. Shu tariqa yoshlarni ona-Vatanga, buyuk ajdodlar merosi va xalqimizning misli koʻrilmagan bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuygʻularini singdirish maqsadida ularni, dunyoni hayratga soladigan milliy obidalar, qadimiy yodgorliklar, muzey va adib uy-muzeylarini ziyorat qildirish, yurtimizning goʻzal tabiati bilan muntazam ravishda tanishtirib borish maqsadga muvofiq boʻladi.

Bu dars usulidan foydalanish orqali oʻquvchilarning erkin fikrlash doirasi kengayadi, oʻzi mustaqil fikrini bayon qila oladigan boʻladi. Adib hayoti va

ijodini o'rganishda muzeylarga sayohat uyushtirish, u yerdagi portret va asarlar, ko'rgazmalarni bevosita adib hayoti bilan bog'lagan holatda o'quvchiga yetkaza olish o'qituvchi mahoratiga bog'liq.

Umuman, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor kabi adiblarimiz ijodini o'rganayotgan paytda ham adabiy ekskursiya usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. G'afur G'ulom ijodini o'rganish jarayonida o'quvchilarga shoir haqida ma'lumot beriladi va shoir uy-muzeyiga ekskursiya uyushtiriladi. O'quvchilarning u yerda shoir haqida yanada to'laroq ma'lumot olishga muvaffaq bo'ladilar. Chunki shoirning esdaliklari, suratlari, shoir foydalangan buyumlari, hattoki adibning chalgan tanburi-yu, o'qigan "Qur'on" kitoblari o'quvchida umrbod esda qoladigan tuyg'uni paydo qiladi. Bu adibga bo'lgan mehr va hamnafaslik tuyg'usidir.

III bob. BMI ning amaliyotga tatbiqi

3.1. Tajriba sinov ishlari va ularning natijalariga oid tahlillar

Ma'lumki, maktab adabiy ta'limida 5-sinfdan boshlab adabiyot fan sifatida mustaqil o'qitila boshlanadi. Bungacha o'quvchilarda "O'qish" kitobidagi asarlar mutolaasi va ularning tahlili bilan tanishish orqali badiiy asarni o'qish va uqish malakalari shakllantirilgan bo'ladi. O'quvchilarning yoshi ortishi bilan ulardagi hayotni anglash, uni tushunish, yashashdan maqsad kabilarni ham anglay boshlashlarining guvohi bo'lamiz. Bu sohada esa o'quvchiga eng yaqin va haqiqiy do'st, maslakdosh – badiiy adabiyotdir. Zero, adabiyot – hayotning inikosi. Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov: **"Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir, yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta"**¹⁴ – deb ta'kidlagan edilar. Badiiy adabiyot ma'naviyatni oziqlantiruvchi manba sifatida o'quvchi-yoshlar dunyoqarashiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Adib voqealarni hayotdan, insonlarning o'zidan olib, unga badiiylik, obrazlilik "libos"ini kiydiradi, shu holatda yana kitobxonga qaytarishi hech kimga sir emas. Katta hayot zinalarini birma-bir bosib yuqorilayotgan bola uchun, u yashayotgan yurt, mahalla, oila, maktab, do'stlar davrasidagi muhit kelajakda qanday inson bo'lishini ta'minlaydi. Biz, adabiyot o'qituvchilari, o'z darslarimizni bolaning badiiy tafakkurini, mustaqil fikr yuritish va hayotga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladigan darajaga yetkaza olsak, o'zi o'qiyotgan har qanday matnga ijodkorona va tanqidiy nazar bilan qaray oladigan o'quvchini shakllantirsak oldimizga qo'ygan

¹⁴ I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat , 2008. 134-bet.

maqsadga bir qadar erishgan bo‘lamiz. Xususan, 5-sinfda yozuvchi tarjimayi holi va darslikda berilgan asarining o‘zaro chambarchas bog‘liqlikda o‘qitilishi bu darslarning jonli, qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayevlar muallifligida “Adabiyot 5. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma” nomi bilan chop etilgan o‘qituvchi kitobidagi A. Oripovning “O‘zbekiston” qasidasini o‘rganish yuzasidan berilgan metodik maqolada quyidagicha tavsiyalarni o‘qishimiz mumkin: **“Shoirning hayoti va ijodiga bag‘ishlanishi lozim bo‘lgan 2 soatni ikkiga – bir soatini uning hayoti va ijodiy faoliyatiga, ikkinchi soatini bevosita “O‘zbekiston” qasidasi tahliliga ajratib foydalanish mumkin”**¹⁵. Holbuki, zamonaviy adabiyot o‘qitish metodikasi fanida “umumta’lim maktablarining bitiruvchi – to‘qqizinchi sinfi adabiy ta’limidagina ijodkor umr yo‘lini o‘rganish uchun alohida soat ajratiladi deb ko‘rsatiladi”¹⁶. Metodist olim Q.Yo‘ldoshev adabiyot o‘qituvchilariga quyidagicha tavsiya beradi: **“O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘tiladigan har bir yangi mavzu oldidan adibning tarjimayi holiga doir ma’lumotlarni o‘zlari uyda o‘qib kelishlariga odatlantirgani ma’qul”**¹⁷. Biz ustozning yuqoridagi fikrlarini juda o‘rinli, o‘quvchini izlanuvchanlikka, mustaqil o‘qishga o‘rgatadigan usul sifatida yuqori baholaymiz hamda o‘quvchilarga qo‘shimcha ma’lumotlar topish va o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxatini berishni ham tavsiya qilamiz. Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov hamda J.Yo‘ldoshbekovlar muallifligida yaratilgan “Adabiy saboqlar 9” nomli metodik qo‘llanmasida esa bu muhim masalaga oydinlik kiritilgan: **“O‘qituvchi to‘qqizinchi sinf adabiy ta’limi yo‘nalishini belgilashda yana bir jihatga alohida e’tibor qaratishi kerak bo‘ladi. Ma’lumki, 5–8-sinflardagi adabiyot darslarida yozuvchi tarjimayi holini o‘rganishga alohida vaqt ajratilmaydi. O‘quvchilar uchun ijodkor to‘g‘risida u sinflarda o‘zlashtirilgan bilimlar qo‘shimcha ma’lumot maqomida bo‘ladi. Bu sinflarda adabiy ta’lim to‘lig‘icha adabiy**

¹⁵ S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot 5. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: Sharq, 2007.138-bet.

¹⁶ Mirqosimova M., Atamuradova R. Ta’lim bosqichlarida Abdulla Oripov hayoti va ijodini o‘rgatish usullari. Al Ikrom Print, Jizzax 2012,10-bet.

¹⁷ Yo‘ldoshev Q. Adabiy saboqlar 8 (8-sinf “Adabiyot” darsligi uchun metodik qo‘llanma).–T.: Sharq, 2004, 62-bet.

o‘qitish tarzida yo‘lga qo‘yilgani uchun ham yozuvchi bilan uning o‘rganilayotgan asari orasidagi bog‘liqlik sezilarli bo‘lmas edi. To‘qqizinchi sinfdan boshlab esa adabiyot o‘qitish tizimli kursga bir qadar yaqinlashadi, o‘quvchilar ham yosh jihatdan ijodkor shaxsiyati, uning bosib o‘tgan hayot yo‘li bilan muayyan asari o‘rtasida aloqa borligini payqay oladigan darajaga ko‘tariladi. Shuning uchun ham 9-sinfdan boshlab, yozuvchi-shoirlarning tarjimayi holini o‘rgatishga alohida vaqt mobaynida to‘xtalish maqsadga muvofiq sanaladi¹⁸.

Shu o‘rinda izlanuvchi-tadqiqotchi sifatida, atoqli metodist ustozlarimiz keltirgan yuqoridagi fikrlarni inkor etmagan holda, bu masalaga o‘z fikr-mulohazalarimizni bildirmoqchimiz. 5–8-sinflar adabiyot darsliklariga kiritilgan shunday asarlar borki, ularni muallif tarjimayi holi bilan bog‘liqlikda o‘rganilmasa, dars saviyasi, samaradorligi, eng asosiysi, o‘quvchilarning asar g‘oyasini anglab yetishida ancha qiyinchiliklar tug‘iladi. Masalan, aynan 5-sinfda Zahiriddin Muhammad Bobur, G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov kabi adiblarimizning ijod namunalarini ularning tarjimayi holi bilan bog‘lamasdan o‘rganishning hech ham iloji yo‘q. Jumladan, Bobur ruboiylarini o‘rganishdan oldin u bosib o‘tgan mashaqqatli hayot yo‘li haqida ma‘lumot berish maqsadga muvofiq.

O‘qituvchi tomonidan shoir haqida quyidagi kabi fikrlarni eslatish o‘rinli deb bilamiz: Ism va jismning bir-biriga monand kelishi kamdan-kam uchraydigan hodisalardan sanaladi. Ammo biz o‘rganmoqchi bo‘lgan shoh-shoir Bobur Mirzo o‘zining qisqa umr yo‘li davomida juda ko‘plab hayot sinovlaridan o‘tib “dilbar shaxs” darajasiga erishgan.

Davron meni o‘tkardi sar-u somondin,

Oyirdi meni bir yo‘li xonumondin.

Gah boshima toj, gah baloyi ta’na,

¹⁸ Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshibekov J. Adabiy saboqlar 9 (9-sinf “Adabiyot” darsligi uchun metodik qo‘llanma).–T.: “Yangi yo‘l Poligraph servis”, 2006, 6-bet.

Nelarki boshimg'a kelmadi davrondin¹⁹

deya davronning turfa qiliqlari haqida yozgan shoirning ustoz Buxoroyi sharif madrasalarida, Bag'dod-u Basrada emas, beshafqat hayotning o'zi bo'ldi... Ammo bir qo'lida zahar, bir qo'lida shakar tutadigan hayot uni o'zining ajoyib-u g'aroyib in'omlaridan ham benasib qilmay, buyuk iste'dod – shoirlikni hadya etdi. Qismat esa uni, bir tomondan, o'n to'qqiz yoshida tug'ilgan diyorini tark etishga, ikkinchi tomondan, yigirma besh yoshida Afg'oniston, pokiston, Hindiston, Bangladesh kabi qator mamlakatlarning aksar qismini zabt etib, buyuk boburiylar saltanatiga asos solgan imperator darajasiga olib chiqdi...

5-sinf o'quvchisining yosh xususiyatlari, bilim saviyasi, mumtoz she'r namunasini tushunish darajasini inobatga olib, darslikda o'rganish uchun berilgan yuqoridagi ruboiyni tahlil qilish namunasini keltirmoqchimiz:

Dastlab ruboiy o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan yod aytiladi yoki ifodali o'qiladi. Uning tili sodda va tushunarli ekanligi, ayrim hozirgi kunda tushunarsiz so'z(davron– taqdir, zamon, davr; sar-u somon– sara(bug'doy); xonumon– oila, ro'zg'or, bor-u yo'q)larning izohi bayon qilinadi. Endi o'quvchilar diqqati matnda ifodalanayotgan g'oyaga qaratiladi: Hayot shoirni o'z sinov va mashaqqatlaridan benasib qilmay “siyladi”. Bu “siylov”lar: 12 yoshda yetimlik, 15 yoshda bobo yurt bo'lmish Samarqandni egallash quvonchlari va undan bir necha marta ayriliq iztiroblari, atrofidagi yaqin insonlarining xiyonatlari va boshqalar edi. Ona yurtidan yiroqda bo'lish, o'zi tug'ilib o'sgan tuprog'iga bo'lgan muhabbat, unga yetishish orzusi doimo ko'nglining eng yuksak qavatlarida saqlandi. Ko'plab hukmdorlarning toj-u taxt uchun kurashishdan maqsadi behisob mol-dunyo orttirish, farovon umr kechirish bo'lsa, Bobur Mirzo harakatlarida xalqning osoyishta turmushi, porloq kelajagi, ilm-ma'rifatli bo'lishi uchun kurash o'z aksini topgan. Lekin bu oltin tojning soyasi uning butun hayoti davomida mashaqqatli kunlarning bisyor bo'lishida asosiy sababchi ham bo'ldi. Unga jang-u jadallar iztirobi, nohaqliklar zahmati, hatto hukmdor bo'lsa-da, mulksizlik ranj-u mehnati

¹⁹ Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik.II qism. –T.: “Sharq” 2011.115-bet.

kabilarni “tuhfa” etdi. Shoir ...**Nelarki boshimg‘a kelmadi davrondin**, deganida ahvolining naqadar ayanchli ekanligi haqida mardona, baralla, ro‘yirost qog‘ozga tushiradi va shundayligicha o‘quvchiga taqdim etadi. Bu kabi ruboiylar tahlilida adib tarjimayi holi bilan bog‘liq tafsilotlar ham aytib o‘tilmasa, she‘rning mazmun-mohiyati to‘la anglashilmaydi.

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning “Nido” dostonini ham shoirning avtobiografik ruhda yozilgan dostoni deb ayta olamiz. Doston dahshatli va shafqatsiz qirg‘in tufayli otasiz qolgan millionlab ma‘sum go‘daklar chekkan nola-yu fig‘onlar, sog‘inch iztiroblari, hijron alamlarini aks ettirgan asar sifatida xarakterlidir. Dostonning yuraklarga titroq soluvchi dastlabki bandini tahlil qilish namunasini ko‘raylik:

Hayqiraman,
Tog‘lar bag‘ridan
Gumburlagan sado keladi.
Ona yerning otash qa‘ridan
“O‘g‘lim!” degan nido keladi...²⁰

Ota-ona sog‘inchi – bola uchun juda katta azob. Bola har qanday sharoitda ular bilan birga bo‘lishni istaydi. Endi tasavvur qiling: urush, to‘s-to‘polon...go‘yo ajal burchak-burchaklardan mo‘ralab, kimni changalimga olsam ekan deb turgandek... Bolaning otasi vafot etgan. Lekin uning qalbidagi ota mehriga bo‘lgan tashnalik tog‘larni gumburlatar darajada sado taratib, hayqirishiga sabab bo‘lmoqda. Shoir doston boshlanmasida bejiz tog‘lar, ona yer kabi obrazlarni keltirmaydi. Dunyoda vaqt sinoviga bardosh bera oladigan mustahkam yaratiq bu – tog‘lardir. Xalqimiz otani matonati, bardoshi, oilaning ustuni, suyanchig‘i deya tog‘ga qiyoslaydi. Aynan shuning uchun ham bola tog‘lar bag‘ri, ya‘ni o‘z otasidan “O‘g‘lim!” degan sadoni eshitadi. Chunki urushda halok bo‘lgan otaning jismi yer bag‘rida, shuning uchun ham uning “O‘g‘lim!” degan nidosi yer qa‘ridan kelib turishi ayni ishonarli haqiqat. **“Bu dostonni shoir qalb o‘rtanishi, so‘ngsiz armon va yurak qoni bilan**

²⁰ Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik.II qism.- T.: “Sharq” 2011.163-bet

bitganini ko‘ramiz. Otasini jangga undagan sabablar: hayot, erk, kelajak. Butun Yer – undagi bor avlod ekanini anglab yetadi”.²¹ Undan tashqari shoirning zamondoshlari, tengdosh o‘rtoqlari hayotida ham urush yetkazgan dahshatli fojia dog‘larini ko‘rishimiz mumkin. Bir oyoqsiz urushdan qaytgan Rustamning akasi, o‘g‘li “Dadajon!”– deb chopib kelganda qo‘lidan ayrilgan Xol akaning qucha olmay chekkan faryodi yoki bo‘lmasa butun sinf, hatto muallimni ham yig‘latgan Tal‘atning otasidan kelgan qora xat... Nafaqat butun sinf, butun o‘zbek xalqi, butun dunyoni yig‘latmadimi bu – Urush deganlari?!. Shoirning yuqoridagi voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib guvoh bo‘lganligi, boshidan o‘tkazganligi, ich-ichidan his qilganligi, ya’ni dostonida ifodalangan voqealarning kitobxon qalbiga yetib borishi va ta’sirlantirishida muhim ahamiyat kasb etgan. Demak bu asar tahlilida ham yozuvchi tarjimayi holi bilan bog‘liq voqealarni o‘quvchi ko‘z oldida gavdalantirishimiz lozim bo‘ladi.

Darhaqiqat, 5-sinf o‘quvchisi, hayotning achchiq-chuchugini ko‘rmagan bola urush, uning insoniyat boshiga soladigan kulfatlari haqida qaydan bilsin. Urushning oldini olish, unga qarshi kurashish yo‘l-yo‘riqlarini-chi? Bu masalada yosh avlodga ulardan oldin o‘tgan insonlarning hayotiy saboqlarigina amaliy o‘rnak bo‘lishi mumkin. Agar bunday saboqlar badiiy adabiyot namunalari orqali yetkazilsa, mahoratli o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilinsa, asar voqealarining yanada ta’sirchan, ishonchli chiqishiga shubha yo‘q. Fikrimizni G‘afur G‘ulom tomonidan yaratilgan, hayotiy voqeaga asoslangan “Mening o‘g‘rigina bolam” voqeyi hikoyasini tahlilga tortish bilan davom ettiramiz. Asar voqealari **“Otamizning o‘lganiga anchagina yil o‘tib ketdi. Bu yil – o‘n yettinchi yilning ko‘klamida onamizdan ajralib, shum yetim bo‘lib qoldik. Biz to‘rt yetimdan xabar olib turishga katta onam – onamning onalari Roqiyabibi kelib turardi”**²², – degan jumlar bilan boshlanishi bejiz emas. Haqiqatdan ham shoirning 9 yoshida otasidan, 15 yoshida onasidan yetim qolgani haqida tarjimayi

²¹ Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li. – T.: Muharrir, 2013-y. 169-bet.

²² Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism. – T.: Sharq, 2011.163-bet.

holidan o'qiganmiz. Adib asarda insonning ayni o'ynab-kulib, mehribon otanasiga behisob sho'xliklar-u erkaliklarni qila oladigan, "podshohlik taxtiravonida viqor-la o'tiradigan" davri o'rnini shafqatsizlarcha egallagan shum yetimlik, sargardonlik, azob-u uqubatlarga yo'g'rilgan bolalik xotiralarini yuksak badiiyat bilan tasvirleydi. O'sib kelayotgan avlod hikoyada hayot sinovlarini mardonavor, miyig'ida kulib yenga oladigan G'afur G'ulomdek siymoni uchratadi. Adibning "Shum bola" asari ham yozuvchining yetimlik uqubatlari ustidan qanday g'alaba qila olganining ifodasidir. Agar yozuvchining tarjimaiy holidan olingan voqealar ham asar tahlili davomida o'quvchilarga tushuntirilib borilsa, har qanday o'quvchi uchun ibrat namunasi vazifasini o'tashi shubhasiz.

Biz xulosa sifatida quyidagilarni aytishni joiz deb bildik:

1. Maktab Adabiyot dasturning 5–8-sinflar uchun tuzilgan bandlarida yozuvchi tarjimaiy holini o'rganishga alohida soat ajratilmagan. Demak, asar tahlili jarayonida adib haqidagi ma'lumotlar oddiy bir ijodkorning hayot yo'li tafsilotlari emas, uning barkamol avlod tarbiyasi uchun o'rnak bo'la oladigan jihatlarini tahlilga singdirish va o'quvchiga anglatish lozim bo'ladi. Bu bilan biz, adabiyot o'qituvchilari, bola eslab qolishi qiyin bo'lgan aniq raqamlar, yil va sanalarga asoslangan ta'lim tizimini o'quvchini o'ylashga, fikrlashga, ibrat olishga o'rgatadigan adabiy ta'lim tizimiga o'zgartiramiz.

2. Adabiyot – ma'naviyat xazinasi. Bu xazinaga o'quvchi 5-sinfdan dadil qadamlar bilan kirib kelishi uchun o'z-o'zidan boshlang'ich ta'limdagi darslarning sifat va samaradorligini oshirish lozim bo'ladi, chunki o'qish texnikasini yaxshi egallamagan o'quvchi nafaqat adabiyot, balki boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham oqsashi hech kimga sir emas.

3. Agar adabiy ta'limda o'qituvchi bir xillikdan qochib, darsni har xil usullar orqali tashkil eta olsa, o'quvchi turfa gullar ochilgan gulshanda sayr qilayotganga o'xshaydi. Har bir guldandan o'zgacha lazzat olinganidek, noan'anaviy tashkil qilingan dars, mavzuga o'zgacha (yozuvchi tarjimaiy holi bilan bog'liq voqealar asosida) yondashish o'quvchining badiiy adabiyotga qiziqishini yanada oshiradi. Sayyoh bog'dagi gullarning shu darajada chiroyli bo'lib, atrofdagilarga zavq

ulashishi, muattar ifor taratishi bog‘bonning mehnati, qalb mehri natijasi ekanligini his qilganidek, o‘quvchi badiiy asarning ijodkor ruhiyati, ko‘rgan-kechirganlari asosidagi qalb kechinmalariga asoslanib yozilganini anglab yetadi.

4. Dasturda yuqorida ijodini tahlilga tortgan adiblarimiz Zahiriddin Muhammad Bobur va uning ruboiylarini o‘rganishga 2 soat, Erkin Vohidov va uning “Nido” dostoni tahlili uchun 3 soat, G‘afur G‘ulom va uning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi tahliliga 3 soat vaqt ajratilgan. Shu o‘rinda Bobur hayoti va uning ruboiylari tahliliga ajratilgan 2 soat juda kamlik qiladi degan fikrdamiz. Chunki o‘quvchi bugungacha tanishgan barmoq vaznidagi she‘rlardan ruboiy janrining o‘ziga xos xususiyatlarini farqlashni hali bilmaydi. Ularning tahlili davomida matndagi notanish so‘zlar, otashqalb shoirning hayot yo‘li, kechinmalari, shaxsiyati ijodiga ko‘chganligini anglatish lozim bo‘ladi. Yana o‘qituvchi tomonidan ruboiy haqida berilgan nazariy ma‘lumotni ham tushuntirish kerakligini inobatga olsak, bu vaqt kamlik qilishi o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lib qoladi.

Demak, Bobur va bu kabi tarjimayi holi o‘z asarlarida yaqqol aks etgan ijodkorlar asarlari tahlili darsdan tashqari, jumladan, to‘garak mashg‘ulotlarida davom ettirilishi maqsadga muvofiq. Bunday asarlar ustida ishlash jarayonida o‘quvchi qahramon qiyofasida adibning o‘zi turganligini payqaydi.

3.2. 9-sinfda Bobur hayoti va ijodini o‘rganishda qo‘shimcha manbalardan foydalanish usullari.

Hozirgi kunda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan ta‘lim islohatlari ta‘limning ilg‘or texnologiyalari o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etishni zamon talabi darajasiga ko‘taradi. Bu o‘z navbatida ta‘lim sohasiga texnologik yondashuvni tatbiq etish va pedagogik usulni qo‘llash O‘zbekistonning milliy, ma‘naviy-manadaniy xususiyatlarni, tarixiy an‘analarni hisobga olgan holda amalga oshirishni talab etadi.

Ma‘lumki, Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsi va ijodi uzluksiz ta‘lim jarayoni Davlat o‘quv dasturlarida keng o‘rin olgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ko‘p va xo‘p yozilgan, har bir davrning olim va shoirlari unga, uning merosiga o‘z munosabatlarini bildirmasdan o‘tmaganlar. U nafaqat tarixiy burulishlar davrida yashadi, balki o‘zi ham 12 yoshidan boshlab yurtma-yurt kezib, ba’zida chekinib, asosan g‘alaba qozonib, “Boburiylar saltanati” nomi bilan atalgan imperiya yaratdi.

Inson mukammallikka intilib yashaydi. Qanday yashash lozimligini ko‘rsatib turadigan andoza, o‘z fazilatlarini bilan avlodlarga o‘rnak bo‘ladigan timsol darajasiga yetish kerak. Barcha sohada bo‘lgani kabi mukammallikni izlashda inson o‘z tasavvuri, turmush-tarzi, kasb-koriga mos timsolni tanlaydi, shunga qaramay, o‘zligini dunyoqarashi, ijodi, fikr ko‘lami faqat o‘zi yashagan davr, o‘zi mansub millat va mamlakat uchun emas, balki asrlar davomida barcha xalqlarning ma’naviy xazinasini bo‘lib kelgan buyuk siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur mana salkam yetti asrdan buyon ko‘pchilik uchun mukammallik timsoli bo‘lib kelmoqda.

Ta’lim jarayonida Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o‘rganish jarayonida o‘quvchi uni shaxs sifatida tanib, o‘rganib boradi, ijodkordan o‘rnak oladi, natijada o‘quvchini tarbiyalash imkoni yuzaga keladi, unda mukammal inson qanday bo‘lishi kerakligi haqida tasavvur hosil bo‘ladi.

Darsda tanqidiy fikrlashning turi bo‘lmish FSMU usulidan foydalangan holda o‘quvchilar uchun ahamiyatli bo‘lgan qiziq muammoni o‘rtaga tashlab, bahs-munozara vaziyatini yaratish va tanqidiy mulohazalarga keng o‘rin berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mavzu: XXI asrda yashayotgan avlod nega Bobur shaxsiyati va ijodini sevadi?

O‘tkazish usuli.

Ushbu usul to‘rtta bosqichda o‘tkaziladi:

I-bosqich. “Fikringizni bayon qiling” deb nomlanadi. Bunda har bir o‘quvchiga tarqatilayotgan oddiy qog‘ozga Bobur haqidagi bilgan fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib berish topshiriladi.

Masalan: Birinchi o‘quvchi: Zahiriddin Muhammad Bobur yuksak insoniy fazilatga ega.

Ikkinchi o‘quvchi: U o‘zbek tilining rivojiga hissa qo‘shgan tilchi.

Uchinchi o‘quvchi: U buyuk o‘lkashunos.

To‘rtinchi o‘quvchi: Bobur haqiqiy atamashunos.

Beshinchi o‘quvchi: Avlodlarga me‘moriy obidalar qoldirgan shaxs.

Oltinchi o‘quvchi: Bobur rostgo‘y inson.

Etтинchi o‘quvchi: Amir Temur saltanatining yaxlitligini orzu qilgan va shuning uchun kurashgan shaxs va hakoza.

II -bosqich. Bu bosqichda har bir o‘quvchi FSMU usulining to‘rtta bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:

F – fikringizni bayon qiling.

S – fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M – ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol ko‘rsating.

U – fikringizni umumlashtiring.

Masalan: birinchi o‘quvchi: Men Boburning rostgo‘y inson ekanligini tan olaman, sababi Boburdan oldin badiiy adabiyotda hali hech bir shoh va shoir o‘z – ko‘rgan kechirganlarini, yutuq va kamchiliklarini bunchalik haqqoniy va dadillik bilan ochib bergan emas, chindan ham Bobur ma‘naviy yetuk inson.

Ikkinchi o‘quvchi: Men Boburni Amir Temurning haqiqiy vorisi deb bilaman, sababi Sohibqiron saltanatining yaxlitligini orzu qilgan Bobur temuriy shahzodalardan kimda – kim bu maqsad yo‘lida xilof so‘z aytgan, undan o‘zini chetga olgan bo‘lsa, “Boburnoma” asarida oshkora tanqid qilgan.

Uchinchi o‘quvchi: Boburni o‘zbek tilining rivojiga hissa qo‘shgan odam desa bo‘ladi, sababi, tilni soddalashtirib, jonli so‘zlashuv tiligi yaqinlashtirgan.

Shu tariqa har bir o‘quvchi tarqatilgan qog‘ozdagi FSMU ning to‘rt bosqichida o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘latadi.

III bosqich. Har bir talaba o‘z qog‘ozini to‘latib bo‘lgach, o‘quvchi ularni kichik guruhlarga bo‘ladi va har biri yozgan qog‘ozdagi fikr va dalillarini katta formatga umumlashtirgan holda yozishlarini taklif etadi.

IV bosqichda guruh a'zolarining Bobur haqidagi barcha fikrlari o'rganilgach, bosqichning har biri bo'yicha umumlashtirib, himoya qilinadi. Himoya vaqtida guruh vakillari o'z yozganlarini isbotlashlari, ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tishi kerak.

Yakunlovchi bosqichda o'quvchi mash'ulotga yakun yasaydi, bayon qilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

- Demak, Bobur adabiy merosining bugungi ma'naviy hayot va adabiyot uchun ibratli jihatlari juda ham ko'p. Bobur merosi bizda millatparvarlikni, vatanparvarlikni, ona-yurt uchun fidoiylikni, insonparvarlikni o'rgatishga da'vat etadi. SHu bois biz uning ijodi bilan qiziqishimiz, havas qilishimiz, hayratga tushishimiz tabiiy hol. Hozirgi yoshlar uchun Bobur shaxsi komillikka loyiq ekanligi aytib o'tiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi – talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'quvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

O'quvchilarning o'z ustida ishlashlari, qo'shimcha manbalardan foydalanishlari, vaqtli matbuot, internet ma'lumotlari, badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan tanishishlari bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga yordam beradi. Dars va darsdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning qo'shimcha manbalardan foydalanishlariga o'rgatish mumkin. Fikrimiz isbotini quyidagi tadbir misolida ko'rib chiqamiz.

“Anda jonim qoldi mening” nomli tadbir

REJASI:

Debocha qismi: Guruhlarning tanishtiruvini: har biri guruhga 3 daqiqadan vaqt beriladi.

I – shart: **Sahnaviy topishmoq.** Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar hayotiga oid sahna ko‘rsatiladi. Bu qaysi manbadan ekanligini topish buyuriladi.

Vaqt – 4 daqiqa.

To‘g‘ri javob – 5 ball.

To‘liq bo‘lmagan javobga – 2,5 ball.

Noto‘g‘ri javob – 0 ball.

II– shart: **Bahru bayt.** Har bir guruhdan bir ishtirokchi qatnashadi. Bobur G‘azallaridan matla‘lari va ruboiylaridan aytib she‘rxonlik qilinadi.

Vaqt – 6 daqiqa.

To‘xtab qolsa – 2,5 ball.

Oxirigacha aytsa – 5 ball.

III – shart. **Savol – javob.** Har bir guruhga 10 tadan savol beriladi.

Vaqt – 10 daqiqa.

To‘g‘ri javob – 2 ball.

To‘liq bo‘lmagan javobga – 1 ball.

Noto‘g‘ri javob – 0 ball.

IV – shart. **Uyga vazifa.**

Vaqt – 10 daqiqa.

To‘g‘ri javob – 2 ball.

To‘liq bo‘lmagan javobga – 1 ball.

Noto‘g‘ri javob – 0 ball.

Maxsus tayinlangan hisobchilar ballarni hisoblab borishadi.

Guruh tarkibi 5 o‘quvchidan iborat bo‘ladi.

Guruhning o‘z nomi bo‘lishi lozim.

Bobur va boburiylar hayoti, faoliyatiga bag‘ishlangan quyidagi manbalarga e‘tibor berish maqsadga muvofiq:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”;
2. Gulbadadanbegim “Humoyunnoma”;
3. Bobur “Devon”.
4. Pirmqul Qodirov “Yulduzli tunlar” (“Bobur”). Roman.
5. Pirmqul Qodirov “Avlodlar davoni” (“Humoyun va Akbar”). Roman.
6. Xayriddin Sultonov “Saodat sohili”. Qissa.

7. Xayriddin Sultonov “Boburning tushlari” Qissa.
8. Xayriddin Sultonov “Boburiynoma”. Roman.
9. L.P.Sharma. “Boburiylar saltanati”. Risola.

G‘olib va faol ishtirokchilar maktab rahbariyati tomonidan maxsus mukofotlar bilan taqdirlanadilar.

ANDA JONIM QOLDI MENING

(Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag‘ishlangan kecha)

Dilnoza: Ey do‘stlar, bugun men Andijonimni sog‘indim,
Andijonimni emas, tanda jonimni sog‘indim.

Dildora: Ayriliqning azobi shuncha og‘ir bo‘lurmi?
O‘zga bog‘in kezdim, lek o‘z bo‘stonim sog‘indim.

Assalomu alaykum, maktabimizning ilm kitobini varaqlayotgan, kalblariga, yuraklari to‘riga ziyo nurlarini jo qilib, bilim bulog‘idan qonmoq maqsadida shu yerga yig‘ilgan o‘quvchilari – yu, ma‘rifat ummoni tubidan tafakkur gavharini olib, beminnat ulashayotgan mehridaryo ustozlar!

Dilnoza: Assalomu alaykum, bugungi «Bobur va uning avlodlari»ga bag‘ishlangan bilimdonlar, bellashuvning aziz qatnashuvchilari va mehmonlar!

Shou kechamizga xush kelibsizlar!

Dildora: Dunyodagi eng ulug‘ baxt o‘z vataningda istiqomat qilmoqlik, uning mehri tafti ila ulg‘aymoqlikdir. Eng og‘ir kulfat eca ona yurtindan judo bo‘lmoqlik, hijron azobida yonmoqlikdir.

Dilnoza: Toilega shunday g‘ussalar bitilgan Bobur. Nechun uni taqdir bir bor bo‘lsa ham siylamadi, azoblarga mubtalo etdi. Balki bu taqdiri azalning shohu gado oldida barobar ekanligidan bir nishonadir.

Armoni bor, bu yurakning armoni bor,

Sahrolarda kezib yurgan sarsoni bor.

Faqatgina Andijonda darmoni bor,

Hindistona qolib ketdi hokim mening.

Dildora: Qobullarda qolib ketdi mushfiq onam,
Ayting do‘stlar kim tinglagay ohu – nolam.

Yuragimni bir iztirob tirnar bu dam,
Hindistonda qolib ketdi hokim mening.

Dilnoza: Bog‘i shamol bo‘ylarida kezib yurdim,
Bobolarim pok ruhini sezib yurdim.
Tuprog‘ini kaftga olib ko‘zga surdim,
SHoh, pahlavon Bobur yurti, Andijonim.

Dildora: Bunda yashar o‘z ahdiga vafodorlar,
Ko‘zni olar lo‘ppi – lo‘ppi paxtazorlar.
Gul undirgan dalasidan ketmay qolar.
Aziz bobodehqon yurti, Andijonim.

Dilnoza: Keling Dildoraxon, she‘rxonlikni biroz to‘xtatib turaylik – da, guruhlarga shartlarimizni birma – bir tushuntirib o‘taylik.

Dildora: Demak, birinchi qism «Debocha» qismi bo‘lib, bunda har bir guruh a‘zolari o‘zlarini tanishtirish kerak bo‘ladi. Har bir guruhga 3 daqiqadan vaqt beriladi. Bu shartimiz baholanmaydi.

Dilnoza: 1 – shart sahnaviy topishmoq deb nomlanadi. Bu shartda har bir guruhga Zahiriddin Muhammad Bobur va uning hayotiga oid sahnalar ko‘rsatiladi. Guruhlar bu sahna kimning qaysi asaridan olinganligini va suhbat davomida ishtirok etayotgan ismlarni to‘liq va aniq aytib berishlari kerak bo‘ladi.

To‘liq bo‘lgan javob – 5 ball, chala javob – 2,5 ball, noto‘g‘ri javob 0 ball bilan baholanadi. Vaqt – 4 daqiqa.

Dildora: 2 – shartimiz «Bahru bayt» bo‘lib shartda har bir guruhdan bittadan ishtirokchi qatnashadi. Ular Bobur \azallarining matlallari va ruboiylaridan aytib, she‘rxonlik qiladilar. Belgilangan vaqt – 6 daqiqa. Oxirigacha aytsa 5 ball, to‘xtab qolsa – 2,5 ball.

Dilnoza: 3 – shart savol – javob sharti bo‘lib, bu shartda guruhlarning zukkoligi sinab ko‘riladi. guruhlarning har biriga 10 tadan savol beriladi, vaqt 10 daqiqa.

To‘g‘ri javobga 2 ball, chala javobga 1 ball va noto‘g‘ri javobga esa 0 ball.

Maxsus tayinlangan hisobchilar ballarni hisoblab borishadi.

Dildora: 4 – shartimiz «Uyga vazifa» bo‘lib, unda har bir guruh o‘quvchilariga internet orqali Bobur hayoti va ijodining dunyo miqyosida o‘rganilishi haqida ma’lumot to‘plab kelish topshiriladi.

I - guruh. **Bobur ijodining Angliyada o‘rganilishi.** “Boburnoma”ni o‘rganishda ingliz sharqshunoslarining roli benihoya kattadir.

Bobur Mirzo shaxsiyati, uning shoh asariga ingliz sharqshunoslarining XIX asrning boshlaridan e’tiboran qizaqa boshladlar. “Burjua sharqshunosligi” deb atalgan fanning Boburshoh ijodi, “Boburnoma” ni o‘rganishdagi asl maqsadi nima bo‘lganligidan qat’i nazar, bu sohada ingliz boburshunoslarining xizmati beqiyosdir. Hindistondagi muzey, kutubxona, turli jam’arva va shaxsiy kutubxonalarda ko‘pdan – ko‘p qo‘lyozmalar saqlanadi. Ingliz sharqshunosligining rivojlanishida shu omil katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Angliyaning o‘zida “Boburnoma”ning to‘qqiz marta turli to‘liq va qisqa hollarda chop etilganligining o‘ziyoq bu asarga qiziqishning naqadar katta ekanligidan dalolat beradi.

Birinchi to‘liq inglizcha tarjima chop etilganidan deyarli bir asr vaqt o‘tgach, mashhur ingliz sharqshunosi Annet Susanna Beverij xonim “Boburnoma”ning ikkinchi to‘liq tarjimasini nashr ettirdi.

Boburshoh ijodi va “Boburnoma”ni o‘rganish, ommalashtirishda ingliz sharqshunoslaridan J. Leyden, U. Erskin, R.Kaldekot va boshqa ko‘plab olimlarning xizmatlari tahsinga sazovordir.

Bobur ijodining Amerikada o‘rganilishi.

Amerikalik sharqshunos U. Tekston amalga oshirgan yangi to‘liq inglizcha tarjimani ham aytib o‘tish joizdir. 1996 yilda Oksford universiteti nashriyotida chop etilgan ushbu tarjima avvalgi inglizcha tarjimalardagi xato va kamchiliklarni inobatga olgan hamda mukammal izohlar bilan taminlangan.

Mazkur tarjimadan oldinroq, 1993 yilda U.Tekston “Boburnoma”ning ulkan mehnat talab qilgan noyob bir nashrini chop ettirdi - Abdurahim Xoni Xonon qalamiga mansub forscha tarjimani arab alifbosida va uning inglizcha tarjimasi hamda o‘zbekcha matnini lotin alifbosida uch jildlik qilib nashr ettirdi. SHunday

qilib, uchala matnni bir nashrning o'zida solishtirib o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Amerikada ikki asr mobaynida "Boburnoma"ning uchta, uch xil mukammal inglizcha tarjimasi nashr etildi va ular "Boburnoma"ni jahonga mashhur etishda mislsiz ahamiyat kasb etdi.

II- guruh. **Bobur ijodining Rossiyada o'rganilishi.**

"Boburnoma"ni o'rganishda rus olimlari ham munosib hissa qo'shganlar. Rus olimlari "Boburnoma"ni o'rganishi dastlabki davrda asosan qo'lyozmalar ko'chirish, chop etish bilan cheklangan. "Boburnoma"ni tarjima qilish masalasi uzoq vaqtgacha e'tibordan chetda qolib kelgan. Nihoyat, IX asrning oxirlariga kelib, ular tarjimaga ham kirishganlar, lekin ayrim parchalarnigina o'giranlar. Jumladan, N.I.pantusov "Far\ona" qismini, V.Vyatkin "Samarqand va uning tevarak - atroflari", S.I.polyakov ham asardan bir qismini tarjima qilgan. "Boburnoma"ni o'rganishda rus olimi G.F.Blagovaning xizmatlari kattadir. Uning bir qator ilmiy asarlari boburshunoslikka qo'shilgan jiddiy ulushdir.

III- guruh. **Bobur ijodining Hindiston va Pokistonda o'rganilishi.**

Hindiston va pokistonda ham "Boburnoma"ni o'rganishga yetarli e'tibor berilgan. Jumladan, Boburiylar avlodidan bo'lmish Mirzo Nasriddin Haydar Ko'ragoniy tomonidan "Boburnoma" urdu tiliga tarjima qilinib, dastlab 1924 yilda Dehlida, 1962 yilda esa Karachida chop etilgan. Bundan tashqari "Boburnoma"ning urdu tilida yana bitta tarjimasi bo'lib, uni Rashid Axtar Nadviy amalga oshirgan va u 1965 yilda, keyin 1991 yilda Laho'r shahrida nashr etilgan, lekin mazkur tarjima to'la emas va u fors tilidan o'girilgan.

"Boburnoma"ning hindiycha nashri 1974 yilda Yangi Dehlida Hindiston Adabiyoti Akademiyasi tomonidan chop etilgan. Asarni taniqli mutarjim Yugjit Navalpuriy hindiy tiliga o'girgan.

IV-guruh. **Bobur ijodining O'zbekistonda o'rganilishi.**

Bobur Mirzoning vatanida uning shoh asarini o'rganish ancha erta boshlangan. XVIII asrning boshida, aniqrog'i 1714 yilda Buxoroda Temur po'lat "Boburnoma"ning Buxoro nusxasi deb yuritiladigan qo'lyozmasini sotib oladi. Keyinchalik shu nusxani Sankt – peturburgda G.Ya.Ker o'rganib chiqadi va o'z

qo‘li bilan undan nusxa ko‘chiradi. Mazkur nusxa asosida 1867 yilda “Boburnoma”ning birinchi nashri Qozon shahrida chop etiladi. G‘ijduvonlik Mulla Abdulvahob ko‘chirgan va “Vaqoyi - noma”- ye podshohiy deb atalgan boshqa bir qo‘lyozma 1824 yila peterburgga keltiriladi hamda O.Senkovskiy undan nusxa ko‘chiradi. Senkovskiyning aniqlashicha, ushbu qo‘lyozma 1709 yilda yozib tugallangan va undan 1809 yilda nusxa ko‘chirilgan.

O‘zbekiston XX asrning 40 – yillarigacha “Boburnoma” bo‘yicha, ba’zi bir istisnolarni aytmaganda, deyarli salmoqli ish qilinmagan. Bunga asosan SHo‘rolar hukmronligi davrida olib borilgan siyosat – millatning atoqli shaxslari – olimu fuzalo, shoiru musavvirlarning hayoti va ijodini, bir so‘z bilan aytganda, o‘tmishga, milliy qadriyatlarni o‘rganishga bo‘lgan salbiy munosabat, millatni o‘z o‘tmishidan uzib qo‘yishga qaratilgan siyosat sabab bo‘lgan.

Professor Fitrat tuzgan “O‘zbek adabiyoti namunalari” nomli xrestomatiyada (1928 y.) “Boburnoma”ning Hindistonga oid qismida parchalar berilgan.²³ Lekin Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi, jumladan “Boburnoma” bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar 40 – yillardan e‘tiboran boshlandi. S. A. Azimjonovning yozishicha, bu hol 1947 yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini nishonlash bilan bog‘liq edi; chunki Alisher Navoiyning hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan Hirot va Samarqanddagi madaniy hayotni tasvirlashda olimlar “Boburnoma”ni chetlab o‘ta olmasdilar.²⁴

Mirzo Bobur tavalludining 475 yilligi munosabati bilan 1958 yilda akademik V.Y.Zohidovning “O‘zbekiston madaniyati” gazetasining 1958 yil 12 aprelg‘ sonida “Boburning adabiy faoliyati, “Sharq yulduzi” jurnalining 1958 yil 11-sonida “Boburning faoliyati va adabiy ilmiy merosi haqida” 1958 yilda o‘tkazilgan Butunittifoq sharqshunoslarining birinchi konfirentsiyasida “Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli ma‘ruzasi ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur asarlarda “Boburnoma” haqida ham batafsil so‘z yuritilgan.

²³ O‘zbek ensiklopediyasi, 2-jild, T., 1972, 293-b.

²⁴ Азимджанова С.А. Государство Бабура....с.12

O‘zbekistonning mustaqilligi arafasida va mustaqillik yillarida qadriyatlarimizning tiklanishi, o‘tmishimizga munosabatning o‘zgarishi natijasida ko‘plab ulu\ siymolarga, jumladan Bobur Mirzo shaxsiga, uning shoh asariga bo‘lgan munosabat ham tubdan o‘zgardi.

1990 yil kuzida “Boburnoma” yaratilganligining 460 yilligi birinchi marta keng nishonlandi. Shu munosabat bilan matbuotda ko‘plab maqolalar bosilib chiqdi.

Mustaqillik yillarida qadriyatlarimizni tiklash va o‘rganishga, buyuk siymolarimiz, xususan, Bobur Mirzoni e‘zozlash, o‘rganish, targ‘ib qilish bo‘yicha tobora ko‘proq ishlar amalga oshirilmoqda. 2000 yil 22-24 mayda Samarqand shahrida “Bobur va boburiylarning jahon tsivilizatsiyasini rivojlantirishdagi mavqei” mavzusida Xalqaro ilmiy anjuman o‘tkazilishi fikrimizning dalilidir.

“Boburnoma”ni ommalashtirishda badiiy va sahna asarlari ham katta rolg‘ o‘ynaydi. Birinchi navbatda pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” (T., 1981), romani va videofilg‘mi, Xayriddin Sultonovning “Bobur tushlari” (qissalar, hikoyalar, esselar, T, 1993) hamda shu muallifning “Boburiynoma” (T., 1997) nomli ma‘rifiy romani shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonda “Boburnoma”ni o‘rganish bo‘yicha talay ishlar qilindi va qilinmoqda. “Boburnoma”ni tadqiq etishda ko‘plab olimlar o‘z hissalarini qo‘shdilar. Jumladan, A.Fitrat, P.Shamsiyev, S.Mirzayev, Ya.G‘ulomov, R.Nabiyev, V.Zohidov H.Sulaymonov, F.Sulaymonova, N.Otajonov, L. Xo‘jayeva, S.Shukurullayeva kabi olimlarning bu borada xizmatlari tahsinga sazovordir.

Ular o‘zlari to‘plab kelgan ma‘lumotlarni o‘qib eshittiradilar. To‘g‘ri javobga 2 ball, chala javob – 1 ball, noto‘g‘ri javob – 0 ball, guruhning o‘z nomi va 5 ta a‘zosi bo‘lishi lozim. G‘olib va faol ishtirokchilar maktab rahbariyatining mukofotlari bilan taqdirlanadilar.

X U L O S A

Ta'lim berishda asosiy maqsad o'quvchilar ongiga fan asoslarini puxta sirgdirish orqali ularni diyonatli, e'tiqodli qilib o'stirish, ijtimoiy hayotidagi har bir hodisaga ongli yondashishiga tarbiyalash, egallagan bilim va ko'nikmalarni hayotga tatbiq etish qobiliyatini o'stirishdir. Bu jihatdan adabiyot darsi yosh avlodni jamiyatimiz olg'a surayotgan yuksak g'oyalar ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Adabiyot o'quv fani sifatida murakkab, kup qirralidir. O'quvchilarni hayot bilan tanishtiradi, ularga hayotni ko'rish va anglashga qiziqish hissini o'stiradi, atrof muhit va inson xarakterining murakkabligini tushuntirish qobiliyatini, vatanga, xalqiga sadoqatli bo'lish tuyg'usini shakllantiradi, rivojlantiradi.

Ayniqsa, adabiyot darslari o'quvchilar ma'naviy dunyosini boyitishda muhim omildir. O'qituvchining dars o'tishdagi mahorati mavzuga mos metodlar va usullarni to'g'ri tanlay olishiga ham bog'liqdir.

Adibning ijodiy kamolot sari bosib o'tgan yo'li, ijodiy faoliyati biografik ma'lumotda o'ziga xos o'rin tutib, uning shaxsi, ichki dunyosi, ruhiy olami, qarashlari, ma'naviy e'tiqodi qay tarzda shakllanganidan tortib badiiy mahoratini egallashigacha bo'lgan hayot yo'li o'z aksini to'liqroq topadi. O'quvchi so'z ustasining kimligini, orzu-o'ylarini, intilishlarini tarjimai holning shu qismidan

ko'proq bilib oladi. Demak, bu yerda beriladigan ma'lumotlarning o'quvchi yoshlar uchun ma'rifiy ahamiyati katta.

Ta'lim metodlarini tanlashda asosan ta'lim maqsadi, tahsil oluvchilar soni, ularning o'quv-biluv imkoniyatlari, ta'limning davomiyligi, moddiy-texnika ta'minoti va o'qituvchining mahorati muhim ahamiyatga ega. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va insoniy sifatlarni shakllantirish ko'zda tutiladi. Ta'lim berish jarayonida esa ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun turli metodlarni qo'llash lozim bo'ladi. Shunga ko'ra, ta'lim metodlarini maqsadli, o'rinli va to'g'ri tanlash tamoyili ta'lim samaradorligini kafolatlovchi omilga aylanadi.

Xullas, yozuvchining tarjimai holini va ijodiy faoliyatini o'rganish, bir tomondan, ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarga davr ruhini chuqurroq anglatish, ijtimoiy munosabatlarni ular qalbiga yetkazish, ularni milliy istiqloq mafkurasi, milliy ma'naviyatga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalash, adibning adabiyot ravnaqida va jamiyatda tutgan mavqeini, uning novatorligini ko'rsatish orqali adabiy jarayonning rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglatish, yozuvchi shaxsining kamol topishi, ruhiy olami misolida yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etish, eng muhimi, o'rganilajak asarning yaratilishiga turtki bo'lgan voqea-hodisalar bilan tanishtirish, shu orqali parcha mazmunini to'liq tushuntirish, imkon yaratish uchun xizmat qiladi; asarni o'qish uchun havas uyg'otadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning mazmuni har tomonlama yetuk ma'naviyatli, ma'rifatli kadrlarni kamol toptirish, voyaga yetkazish xar bir ta'lim-tarbiya beruvchi shaxsdan ya'ni, o'qituvchidan, yuksak iste'dod talab qiladilar. Bu iste'dod faqat o'qituvchining bilimini oshirishga qaratilgan bo'lishi, buning uchun o'qituvchi hamma soha bilan hamnafas bo'lishi nazarda tutiladi. Har bir darsga alohida mas'uliyat bilan tayyorlanish o'qituvchining muqaddas burchidir. Bilimdonlik, tajriba, kasbiy mahorat, ko'nikma adabiyot darslarining samaradorligini oshiruvchi muhim omildir.

Interfaol usullar o'qituvchi va o'quvchini darslik, kitob, gazeta va jurnal, internet kabi qo'shimcha manbalarga murojaat qilishga, mavzu yuzasidan

axborotlarni mustaqil izlash, to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etishga undaydi.

Interfaol usullar o'quvchilarni muammoni mustaqil yechish zaruriyati qarshisiga keltirib, uni qo'shimcha manbalar bilan ishlashga yo'naltiradi.

O'qitishning zamonaviy usullari har turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday didaktik usullar kabi o'qituvchidan alohida tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. O'zbekiston. 2018, 20 bet.
2. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qathiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017, 102 bet.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T. Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: O'zbekiston, 2009. -40 bet.
5. Abdulla Kodiriy zamondoshlari xotirasida. - Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. 140-bet.
6. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik (qayta ishlangan 2-nashri). Toshkent: Ma'naviyat. 2009.
7. Adabiyot. Akademik litseylar uchun o'quv dasturi. Tuzuvchilar: B.To'xliyev., B.Sarimsoqov. Toshkent. 2000.
8. Begimqulov U. pedagogik ta'limda zamonaviy texnologiyalar. //pedagogik ta'lim. 2005, 6-son,15-17-betlar.

9. Zunnunov A. va b. Adabiyot o'qitish metodikasi: pedagogika oliy o'quv yurtlari va adabiyot fakulgtetlari talabalari uchun qo'llanma. – T: O'qituvchi, 1992. – 332 b.
10. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, O'qituvchi, 1996. – 152 b.
11. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent, Sharq, 2013.
12. Yo'ldoshev Q. O'qituvchi kitobi. Metodik qo'llanma. 7-sinf “O'zbek adabiyoti” darslik majmuasi uchun. Toshkent, “O'qituvchi”, 1997. 209-b.
13. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent, 2013.
14. Yo'ldoshev J, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: O'qituvchi, 2004. -104 b.
15. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent, O'zbekiston, 2008.
16. Matchonov S. Kitob o'qishni bilasizmi? O'qituvchi, 1993. –140 b.
17. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, O'qituvchi, 1996. – 208 b.
18. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T: Fan, 2006. - 112 b.
19. Niyozmetova R.X. O'zbek tili darslarida yangi o'zbek adabiyotini o'rganish masalalari. Toshkent, 2010, 110 b.
20. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. –T.: Fan, 2007. -216 bet.
21. Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. Toshkent, 2007, 169.
22. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. Toshkent, 2010, 111-bet.
23. Rasulov A. Badiiylik- bezavol yangilik. –T.: Sharq, 2007, 331-bet.
24. Sayidahmedov N. pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. –T.: RTM, 2000. – 46 b.

25. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T.: Fan nashriyoti. 2006. – 261 b.
26. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T: Yangi asr avlodi. 2006.151 b.
27. To'xliyev B., Niyozmetova R., Boltaeva I. Darsliklar bilan ishlash. Toshkent, 2007.
28. Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash. Toshkent, Yozuvchi nashriyoti, 1994, 47-bet.
29. Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006. -448 bet.
30. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar. Toshkent, 2009, 241 b.
31. G'afur G'ulom. Asarlar (10 jildlik). – T.: Adabiyot va san'at, 1-3 jildlar, 1992.
32. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. – Toshkent: O'zinkomsentr, 2003. 103 b.
33. Husanboyeva Q. Adabiyot-ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 366 b.

Internet ma'lumotlari:

www.literatura.uz

www.pedagog.uz

www.ziyonet.uz

www.o'zbek.adabiyoti.com